

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**

**Neft va gaz fakulteti 5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni  
avtomatlashtirish va boshqarish (kimyo, neft-kimyo va oziq-ovqat sanoati)  
bakalavr ta'lif yo'nalishi talabasi**

**Jumayev Shahzod Megliyevichning**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Oqava suvlarni biokimyoviy tozalashda aerotenk – tindirgich blokini  
avtomatik rostlash**

**Rahbar:**

---

Imzo

**kat.o.,q . A.X.Jurayev**

ilmiy unvoni, F.I.SH.

**Ishni bajaruvchi:**

---

Imzo

**SH.M.Jumayev**

F.I.SH.

«*Himoyaga ruxsat etildi»*

«*Himoya uchun DAK ga yuborildi»*

Kafedra mudiri:

Fakultet dekani:

**kat.o.,q A.X.Jurayev**

imzo ilmiy unvoni, F.I.SH.

**dots. A.R.Mallayev**

imzo ilmiy unvoni, F.I.SH.

«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2019 y.

«\_\_\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2019 y.

*Qarshi 2019 yil*

## MUNDARIJA

	бет
<b>Kirish .....</b>	<b>5</b>
<b>I. Umumiyl qism – OQAVA SUVLARNI BIOKIMYOVİY TOZALASH JARAYONINI UMUMIY TAVSIFI.....</b>	<b>8</b>
Oqava suvlarning hosil bo„lishi, tarkibi va xossalari .....	8
Oqava suvlarni tozalash usullari va qurilmalari .....	11
Oqava suvlarni reagentlar yordamida tozalashda qo“llaniluvchi tindirgichlar va ularning turlari.....	20
Oqava suvlarni biokimyoviy tozalashda aerotenk – tindirgich blokining texnologik sxemasi tavsifi .....	25
<b>II. Texnologik (hisobiy) qism - OQAVA SUVLARNI BIOKIMYOVİY TOZALASHDA AEROTENK – TINDIRGICH BLOKINI AVTOMATIK ROSTLASH.....</b>	<b>29</b>
Aerotenk – tindirgichni avtomatik rostlashning funksional sxemasi bayoni.....	29
Oqava suvlarni biokimyoviy tozalashda aerotenk – tindirgich blokini avtomatik rostlash hisobi .....	31
Oqava suvlarni biokimyoviy tozalash jarayonini uchun avtomatika vositalarini tanlash .....	34
Aerotenk – tindirgich blokining elektr ta“minot sxemasi .....	43
<b>III. Hayot faoliyati xavfsizligi .....</b>	<b>50</b>
<b>IV. Iqtisodiy qism .....</b>	<b>60</b>
<b>V. Atrof-muhit muhofazasi .....</b>	<b>63</b>
<b>Хулоса .....</b>	<b>67</b>
<b>Фойдаланилган адабиётлар рўйхати .....</b>	<b>68</b>
<b>Илова .....</b>	<b>70</b>

## KIRISH

Respublikamizda oqava suvlarni tozalash inshootlaridagi jarayonlarni boshqarish tizimlarini sintezlash va qurish usullaridan foydalanib, texnologik parametrlarni tezkor nazorat qilish va boshqarish imkoniyatlarini yaratish orqali ishlab chiqarish oqava suvlarini tozalash va ulardan foydalanish tizimlaridagi texnologik muhitlarning parametrlarini nazorat qilishning yuqori samarali tizimlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2017–2021 yillarda O.,zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida, jumladan, «... iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, ... maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash» vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan ishlab chiqarish oqava suvlarini tozalash va ulardan foydalanish tizimlaridagi texnologik muhitlarning miqdoriy va sifat parametrlarini nazorat qilish va boshqarishning ilmiy asoslarini, oqava suvlarni tozalash jarayonining matematik modelini, hamda parametrlarini nazorat qilish asboblarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. [1]

So,,nggi yillarda tozalash inshootlari nazorat qilish va boshqarish tizimlarini sintezlash va yaratish usullari, optimallashtirish masalalaridan amaliy foydalanish texnologik parametrlarni tezkor o,lchash imkoniyatlarini beruvchi birlamchi o,,zgartkichlar, analizatorlar, dasturiy vositalar, zamonaviy mikroprotsessorli texnikalarni yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqish bo,,yicha tadqiqotlarga oid ilmiy-texnik adabiyotlarning tahlili bu sohada jiddiy nazariy va amaliy natijalarga erishilganligini ko,,rsatadi.

Bularning barchasi fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari, jumladan, sun"iy intellekt nazariyasi va nazoratni algoritmlashning usullari va vositalaridan foydalanib, murakkab texnologik tizimlarning parametrlarini nazorat qilish uchun o,,lchashning yangi tamoyillariga asoslangan yangi asboblarni yaratish bo,,yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Mavzuning dolzarbliji:** Shaharlар, posyolkalar, aholi punktlari, chorvachilik komplekslari va har xil turdagи sanoat korxonalarining rivojlanishi natijasida ulardan hosil bo„ladigan qattiq va suyuq turdagи chiqindilardan biri bo„lgan oqova suvlarni zamonaviy tozalash inshootlarida talab darajasida tozalab, so„ngra esa suv havzalariga tashlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu turdagи oqova suvlarni tozalab havzalarga tashlanishi natijasida atrof muhit ifloslanishining va ekologik holatning buzilishlarining oldi olinadi. Shuning uchun ham oqava suvlarni tozalashda aerotenklarni qo„llash va bu texnologiyani joriy qilish hozirgi davrning muhim va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

**Ishning maqsadi va vazifalari:** Tabiiy loyqa va oqava suvlarni biokimyoviy tozalashda aerotenk – tindirgich blokini avtomatik rostlash malakaviy bitiruv ishimning asosiy maqsadi va vazifasidir.

**Bitiruv ishining obyekti va predmeti:** Oqava suvlarni biokimyoviy tozalashda aerotenk – tindirgichlarining o„rni va ularni ish unumdoorligini oshirish, oqava suvlarni tozalashda tejamli qurilmalarni joriy etish malakaviy bitiruv ishimning tadqiqot doirasiga kiradi.

**Bitiruv ishining uslubiyati va uslublari:** olingan ma“lumotlar oqava suvlarni tozalashning zamonoviy usullari bu klassik tozalash uslubidan farqli ravishda jadal tezlik bilan amalga oshiriladigan reagentli usullarni qo„llashga asoslangan uslublarini o„z ichiga oladi.

**Bitiruv ishi natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqi:** Tadqiqot natijalari shuni ko„rsatdiki, oqava suvlar sifatini yaxshilovchi qurilmalarni ishini avtomatlashtirish, ma“naviy eskirgan suv tozalash filtrlarini, tindirgichlarni, quvurlarni zamonaviylariga almashtirish amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. Bu tadqiqotlar natijasini tadbik qilish o„zini ancha o„zini ancha samaradorligini ko„rsatadi.

**Bitiruv ishining tuzilishi va xajmi:** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, hayot faoliyati havfsizligi, iqtisodiy qism, atrof muhit muhofazasi xulosa va

foydalanylган адабиётлардан иборат holdа yоритиб berilган. Bitiruv malakaviy ishda 29 rasm, 5 jadval mavjud. Ishning umumiy hajmi 69 betni tashkil etadi.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari:** Bajarilgan ishlar oqava suvlarni biokimyoviy tozalashda aerotenk – tindirgichlarini qo„llash, qurish va faoliyat kursatayotganlarini rekonstruksiya kilish, foydalanishda qulay, ishlashi ishonchli bo„lgan konstruksiyalar qo„llash orqali oqava suvlarni tozalash jarayonini tezlashtirish.

## **I. OQAVA SUVLARNI BIOKIMYOVII TOZALASH**

### **JARAYONINI TAVSIFI**

#### **Oqova suvlarning hosil bo,,lishi, tarkibi va xossalari**

Korxonalarda turli kategoriyadagi oqova suvlar hosil bo,,ladi.

Oqova suv – bu maishiy maqsadda, ishlab chiqarish va qishloq xo,,jaligida qo,,llanilgan, hamda ma“lum bir ifloslangan xududdan o,,tib hosil bo,,lgan suvlardir. Hosil bo,,lishi sharoitiga qarab oqova suvlar 3 turga bo,,linadi [9].

1. Kundalik turmushning xo,,jalik-maishiy chiqindi suvlar (MChS);
2. Sanoat chiqindi suvlar (SChS);
3. Atmosfera suvlar (AS).

Xo,,jalik-maishiy suvlar – bu dush, xammom, kir yuvish, ovqatlanish xonalari, xojatxona, polni yuvishdan hosil bo,,ladigan suvlar hisoblanadi. Bu suvlar tarkibida 58 % organik va 42 % mineral moddalardan iborat iflosliklar bo,,ladi.

Atmosferada suvlar – yomg,,ir va qor erishdan paydo bo,,ladigan va korxona xududidan oqib chiqadigan suvlar. Ular organik hamda mineral iflosliklar bilan ifloslangan bo,,ladi.

Sanoat chiqindi suvlar – bu organik va noorganik ashyoni olish va qayta ishlashda hosil bo,,lgan suyuq chiqindilardir.

Oqova suvlar har xil moddalarning aralashmasidan iborat bo,,lib, murakkab sistemani tashkil qiladi. Erigan noorganik va organik birikmalar, muallaq dag,,al dispers va kolloid aralashmalar, ba“zi hollarda esa erigan gazlar (vodorod sulfid, karbonat va boshqalar).

Sanoat oqova suvlarning tarkibi kimyoviy ishlab chiqarishlarning turlari va ularning texnologik jarayonlariga bog,,liqdir. Sanoatda suv ashyo sifatida erituvchi, reaksiyon muhit, ekstragent yoki absorbent, tashuvchi agent, isituvchi yoki sovituvchi (qurilmalarni yoxud ulardagi ashyolarni), turli xildagi moddalarni, mahsulotlarni, jihozlarni, idishlarni yuvish uchun, moddalarni haydashda, pulpalar

hosil qilishda, vakuum hosil qilishda, jihozlarni, idishlarni va boshqa ko,,p maqsadlarda ishlatiladi.

Tayyor mahsulotni olish uchun butun texnologik siklni o,,tishda foydalilanilgan suv boshlang,,ich, oraliq va oxirgi mahsulotlar bilan ifloslanadi. Masalan, mineral o,,g,,itlar va noorganik ishlab chiqarish korxonalaridagi oqova suvlar kislotalar, ishqorlar, har xil tuzlar (ftoridlar, sulfatlar, fosfatlar, fosfitlar va boshqalar) bilan ifloslangan bo,,ladi. Asosiy organik sintez ishlab chiqarish korxonalari –yog,, kislotalari, aromatik birikmalar, spirtlar, aldegidlar bilan; neft qayta ishlash zavodlarining suvleri – neft maxsulotlari, yog,,lar, smolalar, fenollar, SAM lar (sirt-aktiv moddalar) bilan, sun"iy tola, polimer, har xil sintetik smolalar ishlab chiqaruvchi korxonalarning oqova suvleri –monomerlar, yuqori molekulali moddalar, polimer zarrachalari va boshqalar bilan ifloslangan bo,,ladi [9].

Keyingi vaqtarda qishloq xo,,jaligidan hosil bo,,luvchi va suvga kelib qo,,shiluvchi chiqindilarning hajmi ancha ko,,paydi. Jumladan, chorvachilik, parrandachilik, qishloq xo,,jaligi mahsulotlari, o,,g,,itlari va har xil pestisidlarni qayta ishlovchi tashkilotlardan hosil bo,,luvchi oqova suvlar.

Ko,,pincha oqova suvlar tarkibida yoqimsiz o,,tkir xidga ega moddalar bo,,ladi (sulfidlar, disulfidlar, vodorod sulfid va boshqalar), ba"zan esa kimyoviy korxonalarning turlariga qarab rangli chiqindi suvlar hosil bo,,ladi. Oqova suvlarda ko,,pik hosil bo,,lishi, ularda sirt-aktiv moddalarning mavjudligini ko,,rsatadi.

Oqova suvlarning zararlilik darajasi undagi ifloslayotgan moddalarning (zaxarlilik) xususiyati va tarkibiga bog,,liq. Og,,ir metallarning tuzlari, sianidlar, fenollar, (serovodorod) vodorod sulfid, kanserogen moddalar va qator boshqa shu kabi moddalar oqova suvlarning yuqori darajada zaharlanishiga olib keladi.

Oqova suvlarning past yoki yuqori muxitli (pH) bo,,lishi, ya"ni ishqoriy yoki kislotali bo,,lishi quvur materiallariga, kanalizasiya kollektorlariga va tozalovchi inshootlarning uskunalariga nisbatan ta"sirchan hisoblanadi.

Bulardan tashqari chiqindi suvlarda polimerlanish xossalariiga ega bo,,lgan har xil muallaq modda va birikmalarining ko,,p miqdorda bo,,lishi, suv quvurlari va

kollektorlarining ifloslanishiga, natijada tiqilishga olib keladi. Shuning uchun, sanoat oqova suvlarining ifloslik darajalari doimo nazorat qilib turiladi.

Oqova suvlarning ifloslanish darajasi quyidagi ko„rsatkichlar bilan aniqlanadi:

1. Organoleptik usul (suvning rangi, mazasi, hidi, tiniqligi, loyqaligi va shunga o„xshash parametrlar).
2. Fizik-kimyoviy (optik zichligi, pH, harorati, elektr o„tkazuvchanligi, ishqoriyligi, kislotaliligi, qattiqligi, oquvchanligi, zichligi, sirt tarangligi, va boshqalar).
3. Erigan organik va anorganik moddalar aralashmasining miqdori, kislородга бо„лган kimyoviy ehtiyoj – KBKE va kislородга бо„лган biokimyoviy ehtiyoj – KBBE.
4. Dag„al dispers, kolloid zarrachalar shaklida aralashmalarning borligi.

Oqova suvlarning taxlili organoleptik va fizik-kimyoviy ko„rsatkichlarini aniqlashdan boshlanadi. So„ngra iflos aralashmalarning umumiy miqdorini quritish orqali aniqlanadi. qurigan qoldiqni qizdirilganda uning miqdorini kamayishi oqova suvda organik modda borligini bildiradi. Ko„pincha oqova suvlarni qizdirilganda noorganik moddalar ham uchib ketishi mumkin, shuning uchun organik moddalarning borligini kislородга бо„лган kimyoviy ehtiyoj (KBKE) va kislородга бо„лган biokimeviy ehtiyoj (KBBE)ni aniqlash yordamida tasdiqlanadi.

KBKE – kislotali muhitda oksidlovchi modda – kaliy permanganatga ( $KMnO_4$ ) yoki kaliy bixromat ( $K_2Cr_2O_7$ ) ga ekvivalent miqdordagi sarflanayotgan kislородning miqdori.

KBBE – ma“lum vaqt davomida organik aralashmalarni aerob biologik parchalanishi uchun sarflanayotgan kislородning miqdori, permanganatli yoki bixromatli oksidlanish bilan aniqlanadi. Har ikkala usulda xam kislородning miqdori sarf bo„layotgan oksidlovchi, ya“ni  $KMnO_4$  yoki  $K_2Cr_2O_7$  ning miqdoriga ekvivalent bo„lishi kerak.

Oqova suvlarni effektli tozalash sxemasini tanlash uchun ularni turlarga bo„lish zarurdir.

Oqova suvlarni bir qancha turlarga boʻlish sistemasi mavjud, suvlarning texnologik jarayonda ishtirok etish, iflos aralashmalarining fazoviy-dispers tarkibi, ifloslanish darajasi, suv havzalariga boʻladigan taʼsiriga qarab va boshqalar.

## **OQOVA SUVLARNI TOZALASH USULLARI VA QURILMALARI**

Oqova suvlar - bu kundalik hayotda va ishlab chiqarish korxonalarida foydalanish oqibatida ifloslangan suvlardir. L.A. Kulskiy taklif etgan turkumlashga koʼra oqova suvlar oʻz tarkibida qancha qoʼshimchalar borligiga qarab 4 guruhga boʼlinadi:

1. Tarkibida zarrachalarning oʼlchami  $10^{-5}$ - $10^{-4}$  sm va undan kattaroq keladigan, erimaydigan qoʼshimchalari bor oqova suvlar.
2. Tarkibida juda mayda  $10^{-7}$ - $10^{-5}$  sm erimaydigan qoʼshimchalari boʼladigan oqova suvlar.
3. Tarkibida eruvchan organik moddalar boʼladigan oqova suvlar.
4. Tarkibida eruvchan anorganik moddalar boʼladigan oqova suvlar (elektrolitlar).

Oqova suvlarni tozalash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Qattiq moddalarni ajratib olish yoʼli bilan tozalash usuli yoki mexanik usul.
2. Fizik-kimyoviy tozalash usuli.
3. Kimyoviy tozalash usuli.
4. Biologik tozalash usuli.

Tozalash usullarini qaysi biridan foydalanish maqbul ekanini tanlab olishdan avval oqova suv tahlil qilinadi: bunda suv tarkibidagi muallaq moddalar miqdori, uning tiniqligi va loyqaligi aniqlab olinadi.


Oqova suvlar mexanik usulda tozalanganda ular tarkibidagi suvda erimaydigan mexanik aralashmalar, qattiq loysimon moddalar suvdan ajratib tozalanadi. Ushbu tozalash usulida tozalash qurilmalari sifatida filtrlar,

tindirgichlar, neftushlagichlar, qumushlagichlar va turli xil to,rlardan foydalilanildi.

Filtrlash usuli oqova suvlardagi mayda dispers qattiq yoki suyuq holdagi moddalarni ajratish uchun qo,llaniladi. Ularni tindirish usuli ilan tozalash qiyin. Ajratish teshik to,,siqlar yordamida olib boriladi.

To,,siqlar suyuqlikni o,,tkazib, dispers fazani ushlab qoladi. Jarayon suv ustunini gidrostatik bosimi ta“sirida boradi, ya“ni to,,sik ustidagi yuqori bosim yoki to,,siqdan keyingi vakuum bo,,lishi lozim.

Oqova suvlarni tozalashda quyidagi texnologik jarayonlardan foydalilanidi. 1.1-rasmda oqava suvni tozalashning texnologik sxemasi va tozalanayotgan oqimlarning parametrlarini bosqima-bosqich nazorat qilish keltirilgan [10].



**1.1-rasm. Oqava suvni tozalashning texnologik sxemasi va tozalanayotgan oqimlarning parametrlarini bosqima-bosqich nazorat qilish:**

*SO‘ – sathni o‘lchash, SarO‘ – sarfni o‘lchash, MM – muallaq moddalar tarkibini o‘lchash, LO‘ – loyqa tarkibini o‘lchash, KO‘ – erigan kislorod tarkibini o‘lchash.*

Panjaralar, qum tutkich, birlamchi tindirgich, aerotenk, ikkilamchi tindirgich, loyqa tutkich, kontaktli idish, metantenk, filtr-preslar rostlashning asosiy obyektlari hisoblanadi.

### **Filtrlovchi to,,siqlar orqali filtrlash.**

To,,siqni tanlash oqova suv xususiyatlariga, haroratiga, filtrlash bosimiga, filtr konstruksiyasiga bog,,liq.

To,,siqlar (filtrlar) sifatida zanglamaydigan po,,lat metal listlaridan allyuminiy, nikel, mis, latundan yasalgan to,,rlardan va turli xil (asbestli, shisha tolali, paxtali, jun, sun“iy va sintetik tolalardan yasalgan) matoli to,,siqlardan foydalaniladi.

Zarrachalarni ushlab qoluvchi filtrlovchi to,,siqlar, minimal gidravlik qarshilikka ega. Ular yetarli darajada mexanik mustahkam, egiluvchan, kimyoviy muhitga chidamli, bo,,kib qolmaydigan, filtrlash vaqtida buzilib ketmaydigan bo,,lishi kerak. To,,siqlar (filtrlar) tarkibi bo,,yicha, organik va noorganikka; harakat tizimiga ko,,ra ustki va chuqurlikdagi; strukturasiga ko,,ra egiluvchan va egilmaydigan turlariga bo,,linadi [9].

Filtrlar jarayonni borishiga ko,,ra uzlukli va uzlucksiz; jarayonni turiga ko,,ra ajratish, quritish va yoritish uchun; filtrlarga bosimni berishga ko,,ra – vakuum osti (0.085 MPa gacha), bosim osti (0.3 dan 1.5 MPa) yoki suyuqlik ustunining gidrostatik bosimiga ko,,ra (0.05 MPa gacha); filtrlashni yo,,nalishiga ko,,ra pastga, yuqoriga yoki yoniga; konstruktiv belgilarga ko,,ra, cho,,kmani olish usuliga ko,,ra, filtlash yuzasini holati va shakliga ko,,ra bo,,linadi.

Oqova suvlarni tozalash tizimida uzlukli harakatlanuvchi filtrlar: nutch filtrlar, listli filtrlar, pressli, uzlucksiz, barabanli, diskli va lentali filtrlarga ham bo,,linadi.

### **Donador to,,siqli filtrlar.**

Oqova suvlarni tozalashda yuqori hajmdagi suvlar bilash ishlashga to,,g,,ri keladi. Shuning uchun yuqori bosim talab qilmaydigan filtrlardan foydalanishga to,,g,,ri keladi. Shundan kelib chiqib to,,rli elementlardan tuzilgan filtrlar (mikrofiltrlar va barabanli to,,rlar) va filtrlanuvchi donador qatlamlili filtrlar qo,,llaniladi.

Donador qatlamlı filtrlər sekin va tez, očiq va yopiq filtrlərə böyükləndirilə bilər. Očiq filtrlərə qatlamın balandlığı 1-2 m, yopiq filtrlərdə 0.5-1 m. Sekin filtrlər koagulyantlanmagan oqova suvlarnı tozalashda işlətilədi. Ular donador qatlamın işləşməsi gətirən, betonlu rezervuarlardan iborat.

**Tezkor filtrlər** ikki xil: bir qatlamlı və kəm qatlamlı böyükləndirilə bilər. Bir qatlamlı filtrlərdə filtrlənən qatlam bir xil materialdan, kəm qatlamlı filtre turli materiallardan tuzilənə bilər.

**Mikrofiltrər**. Mikrofiltrasiya deb oqova suvlarnı oçluyan 40-70 MKM tozalardan otkazış jarayoniga aytilədi. Barabanlı tozalarda  $0.3 \times 0.3$  dan  $0.5 \times 0.5$  mm oçluyan yacheykalarga ega böyükləndirilə bilər. İp matoli mikrofiltrər qattiq zarrachalı oqova suvlarnı tozalash üçün qullanılırdı.

**Magnitli filtrlər**. Bunday filtrlər suyuqlikdagi mayda ferromagnitli zarrachaları ( $0.5-5$  MKM lar) yoxqotish üçün qullanılırdı. Bunda magnit zarrachalarından təşqari obraziv zarrachalar, qum və boshqa ifloslantırıvchılardan ushlab qolinə bilər.

Oqova suvlarnı fizik kimyo usulda tozalash. Ushbu usulda oqova suvları koagulyatsiya, flotatsiya, adsorbsiya, ionalmashish, ekstraksiya, rektifikasiya, buglantırış, distillyatsiya, kristallizatsiya, desorbsiya və shu kabi jarayonları asosida tozalanır. Bu usullar oqova suvdagı erikan mineral, organik və gaz birikmalarını ajratışda, hamda juda mayda dispers suzib yuruvchi zarralarnı ajratışda qullanılırdı [9, 11].

Fizik-kimyoviy usullar biokimyoviy usullara nisbatan qator afzallıkları ega:

- Oqova suvdan biokimyoviy oksidlanmaydigan organik zaharlı chiqindilərinə tozalash imkoni borlığı;
- tozalashni chuqur və muqim olib borish mümkünligi;
- tozalash inşaatlarining razmeri kichikligi;
- tozalash jarayonlarını tozlaq avtomatlaşdırış imkoni borlığı;
- oqova suv tarkibidagi turli moddalarnı rekuperatsiya qilish mümkünligi;

- jarayonni to„liq o„rganilganligi va shuning natijasida modellashtirish, matematik hisoblarni amalga oshirish hamda apparatlarni to„g,ri tanlash imkoni borligi;
- usul tirik organizmlarning faoliyati bilan bog,liq emasligi;
- turli birikmalarni rekuperatsiya qilish imkoni borligi.

Tozalashning u yoki bu usulini tanlash tozalanishi kerak bo„lgan oqovasuvning sanitar va texnologik talablari, chiqindi moddalar konsentratsiyasi, oqova suv miqdori, kerakli material va energetik resurslarni bor-yo„qligi va shu kabilar asosida kelib chiqadi.


Oqova suvlarni kimyoviy usulda tozalash. Bu usullarga: neytrallash, oksidlash va qaytarish usullari kiradi.

Ushbu usullar turli reagentlarning sarfi bilan bog,„liq bo„lgani uchun qimmat usullar qatoriga kiradi. Shuning uchun bu usullar yopiq suv sistemalarida lozim bo„lganda erigan moddalarni ajratishda qo„llaniladi.

Kimyoviy usul ba“zan biologik tozalash jarayonidan oldin ishlatiladi.

Neytrallash. Bu usul aralashtirish, reagentlarni qo„shish, neytral materialdan o„tkazish, kislotali gaz bilan neytrallash jarayonlari asosida olib boriladi.

Agar korxonada yoki 2 ta qo„shni korxonada kislotali va ishqoriy oqova suvlar ajralsa, ular o„zaro aralashtirilib, bir birini neytrallaydi.(1.2-rasm)



**1.2-Rasm. Suvlarni aralashtirish neytralizatori.**


1-sig ‘im; 2-havo taqsimlagichi.

Neytrallash uchun reagentlar sifatida  $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{MgCO}_3$ , sement birikmalari ishlatiladi. Eng arzon reagent sifatida oxakli suv hisoblanadi ( $\text{Ca}(\text{OH})_2$ - 5-10% ли). Ba“zan korxonalarining qattiq chiqindilari ham ishlatilishi mumkin (kuyindi shlaklar).

Reagentlar oqova suvdagi kislotaning tarkibi, konsentratsiyasiga qarab tanlanadi. Shunda neytrallash jarayonida cho,,kma hosil bo,,lish-bo,,lmasligi hisobga olinadi. Kislotali oqova suvlar 3 xil ko,,rishishda bo,,ladi:

- 1) kuchsiz kislotali oqova suvlar ( $\text{H}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ )
- 2) kuchli kislotali oqova suvlar ( $\text{HCl}$ ,  $\text{HNO}_3$ )
- 3)  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_3$ , kislotali suvlar ( $\text{CaSO}_4$  cho,,kmasi hosil bo,,lishi mumkin).

Ohak oqova suv tarkibidagi kislotalarni neytrallash uchun kalsiy gidrooksid tuzi ko,,rinishida(ohakli suv) yoki quruq kukun ko,,rinishida beriladi. Ushbu qurilmaning sxemasi quyidagicha (1.3-rasm).




**1.3-Rasm. Kislotali oqava suvlarni kalsiy gidrooksidi ishtrokida neytrallash qurilmasi**

1-o 'rtalagich; 2-oxak so 'ndirish apparati; 3-eritma baklari; 4-dozatorlar;  
5-meytralizator; 6-tindirgich.

Bu yerda oqova suv 1-o,,rtalashtirish apparatiga beriladi. Yuqoridan esa 2-va 3-apparatlarda tayyorlangan oxakli suv eritmasi 4-dozatorlar orqali beriladi. Keyin ular 5- neytralizatorda aralashtiriladi, cho,,kma hosil bo,,lgandan keyin suv 6-tindirgichga yuboriladi. Tindirgichning tagidan cho,kma ajratilib olinadi, tozalangan suv esa tindirgichning yuqori qismidan oqib chiqadi. Oqova suv tarkibida sulfat kislota uchraganda, tozalash jarayonida  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  – gips xosil bo,,ladi.

Ishqoriy oqova suvlardan turli kislotalar va kislotali hususiyatga ega bolgagan gazlar bilan ham neytrallananadi. Bunda kislotali gazlar sifatida  $\text{CO}_2$ ,  $\text{SO}_2$ ,  $\text{NO}_2$ ,  $\text{N}_2\text{O}_3$  va shu kabi gazlar qoşulanganiladi.



**1.4-Rasm. Ishqoriy oqova suvlarni tutun gazlari bilan neytrallash qurilmasi.**

Yuqorida keltirilgan qurilmada neytralizatsiya jarayoni aralashtirgichli reaktorda amalga oshiriladi. Bunda tutun gazlari ventilyator yordamida aralashtirgichning halqali boşligiga beriladi va aralashtirgich yordamida oqova suvda pufakcha va oqim ko'rinishida taqsimlanadi. Suv va gaz ortasidagi toqashish yuzasining yuqoriligi [11].

Neytrallangan suv

Ishlatilgan gazlar

Tutun gazlari

Oqava suv sababli tezda neytralizatsiya jarayoni sodir boladi. Gaz tarkibida  $\text{SO}_2$  gazini bolishi ishqoriy suvlarni neytralizatsiya qilinishiga yordam beradi.

### **Tabiiy sharoitlar biologik tozalash usuli.**


Oqova suvni biokimyoviy tozalashda aerob jarayonlari tabiiy sharoitlarda va sun'iy inshoatlarda borishi mumkin. Tabiiy sharoitlarda oqova suvlardan sugorish dalalarida, filtratsiya dalarida va biologik xovuzlarda biokimyoviy oksidlanish jarayoni asosida zararsizlantirilishi mumkin. Bunda oqova suvlardan maxsus dalalarda yerdagisi mikroorganizmlar, havo, quyosh nuri tasirida biokimyoviy tozalanadilar. Biologik tozalashdan keyin bu yerlarga donli ekinlar ekilishi mumkin. Bunday

tozalagichlar hovuzchalar ko,,rinishida ham bo,,lishi mumkin (bioprud). Bunda 3-5 ta hovuzlar qator qilib joylashtiriladi. Oqova suv bu xovuzlarga biridan keyingisiga oqib o,,tadi. Ularning chuqurligi 0,5-1 m atrofida bo,,ladi va quyosh ta“sirida yaxshi qizdiriladi. Natijada suv o,,tlari yaxshi rivojlanib o,,sadi va suvgaga biokimyoviy oksidlanish uchun kislorod yetkazib beradi.

Biokimyoviy oksidlanish jarayoni natijasida ajralgan CO<sub>2</sub>, fosfor va ammoniyli azot moddalari suv o,,tlari tomonidan o,,zlashtiriladi.

Xovuzchalarni normal ishlashi uchun suv harorati 6 °C dan past bo,,lmasligi lozim. Shuning uchun qish paytida hovuzchalar ishlamaydi.

Oqova suvlarni bir necha tozalash usullari bilan birga sug,,orish dalalariga oqizib to,,liq zararsizlantirish mumkin.



**1.5-rasm. Oqova suvni biokimyoviy tozalash jarayonining texnologik sxemasi**

1-mexanik tozalash; 2-fizik-kimyoviy tozalash; 3-biokimyoviy tozalash;

4-biohovuz; 5-shahobcha kanal; 6-bug‘lantiruvchi hovuz;

7-filtrlash dalasi; 8-sug‘orish dalasi;

1-variantda oqova suv mexanik tozalash bosqichidan keyin 4-xovuzga yuboriladi, so,,ngra kanal orqali bug,,latish xovuziga va sug,,orish dalasiga oqiziladi.


2-variantda oqova suv mexanik va fizik kimyoviy tozalash bosqichlaridan keyin bioxovuz orqali filtrlash dalasiga va sug,,orish dalalariga oqiziladi.

3-variantda esa oqova suv mexanik, fizik kimyoviy va biokimyoviy tozalash bosqichlaridan keyin sug „orish dalalariga oqiziladi, qishki mavsumda esa suv havzasiga yuboriladi.

### **Oqava suvlarni reagentlar yordamida tozalashda qo‘llaniluvchi tindirgichlar va ularning turlari**

Amalda suvni tindirish maxsus tindirgichlarda olib boriladi. Hozirgi kunda suv tozalash amaliyotida uch turdagи: gorizontal, vertikal va radial tindirgichlardan foydalilaniladi [11].

**Gorizontal tindirgich** (suv tindiriladigan hovuz) – planda to„g,ri burchakli havzadan iboratdir. Suv hovuzning bir tomonidan kirib kichik tezlik bilan hovuzda harakat qiladi. Oqibatda zarrachalar hovuzning tagiga tushadi, tozalangan suv hovuzning qarama-qarshi tomonidan chiqib ketadi.



**1.6- rasm. Gorizontal tindirgich sxemas.**

*1 – tindirish zonasi; 2 – loyqa yig‘ilish zonasi.*

Har bir zarrachaning (koordinatlari "x" va "y") oqimini kuzatib, uning teng ta“sir etuvchi tezlik bilan harakatlanishini (ikki tezlik – U – cho,kish tezligi bilan, V – gorizontal zarrachalarning oqish tezligi) ko„rish mumkin. Belgilangan yo„lni o„tgan zarracha inshootning tubiga tushadi.

Eng kichik gidravlik yiriklikka ega bo„lgan zarracha pastga tushib ulgurishi uchun tindirgichning uzunligi

$$Z = \frac{V}{U} H \quad \text{bo,,lishi kerak.}$$

Izlanishlar natijasiga ko,,ra tindirgichda suv turbulent (tartibsiz) rejimda harakat qiladi.

$$Z = a \frac{V}{U} H$$

Bunda a – turbulent rejimni hisobga oluvchi koeffitsient bo,,lib, a = 1.2-1,5; H – tindirgichning balandligi.

Tindirgichni hisobi asosiga suvni belgilangan tindirilish darajasi qo,,yilishi lozim.

$$P = \frac{C_{\max} - C_0}{C_{\max}} \cdot 100 \% \quad (31)$$

$C_{\max}$  – tindirgichga kiradigan suvdagi loyqalikning eng katta miqdori (mg/l)

$C_0$  – tindirilgan suvda qolishi mumkin bo,,lgan (zarrachalarni) moddalarning miqdori ( $C_0$  - QMQ bo,,yicha  $<8-12$  mg/l).

Tindirilish darajasini bilgan holda  $P=f(t)$  grafigi bo,,yicha moddalarning hisobiy cho,,kish tezligini aniqlash mumkin.


Gorizontal tindirgichlar suv tozalash stansiyasining sutkalik quvvati 30 ming m<sup>3</sup> dan ko,,p bo,,lgan hollarda tavsiya etiladi.

### **Vertikal tindirgichlar**

**Vertikal tindirgich** - planda yumaloq ko,,rinishida bo,,lib markaziy reaksiya kamerasi va konussimon cho,,kindi to,,plash qismiga egadir.

Suv aralashtirgichdan markaziy reaksiya kamerasiga tushib, yuqoridan pastga qarab xarakatlanadi. Bu vaqtida koagulyant va loyqa suv o,,rtasida reaksiya davom etadi.

Reaksiya vaqtı 15-20 min. Reaksiya natijasida zarralar yiriklashadi. So,,ndirgich orqali suv, loyqani cho,,ktirish bo,,limiga o,,tadi va asta sekin ( $V=0,5-0,6$  mm/s) pastdan yuqoriga ko,,tarilib, maxsus tarnov orqali tindirgichdan chiqib filtrga o,,tadi.



### **1.7- rasm. Vertikal tindirgich**

*1 –cho ‘kindi hosil qilish kamerasi, 2 – cho ‘ktirish zonasi, 3 – cho ‘kindi to ‘planadigan qismi, 4 – suv tezligini pasaytirgich, 5 – kundirma, 6 – cho ‘kindini olib chiqish quvuri.*

Loyqa konussimon bo,,limda yig,,iladi (to,,planadi) va vaqt vaqt bilan chiqarib yuboriladi. Vertikal tindirgichlarda suvning ko,,tarilish tezligi loyqaning cho,,kish tezligidan kichikroq bo,,lishi zarur. Suvga reagent qo,,shilgandan keyin zarrachalar yiriklashib, ularning cho,,kish tezligi oshadi. Suvning ko,,tarilish tezligi 0,5-0,6 mm/s bo,,lishi maqsadga muvofiqdir. Tindirgichning o,,lchamlari suvning ko,,tarilish tezligiga qiymat berib borish yo,,li bilan aniqlanadi.

$$W = \frac{Q}{V_{kut.}} \quad H = V_{kut.} \cdot T$$

Bunda: W – ko,,ndalang kesim yuzasi ( $m^2$ );

Q – suv sarfi ( $m^3/\text{soat}$ );

$V_{kut.}$  – ko,,tarish tezligi (mm/s);

T – suvning tindirgichda bo,,lishi vaqt. T ( 2-3 soat).

Tindirgichni balandligi,  $H= 4-5 \text{ m}$ ;  $\frac{D}{H} \leq 1,5$ , bo,,lishi tavsiya etiladi.

reaksiya kamerasining hajmi  $W_{r.k.} = \frac{Q \cdot t_p}{60}$  tp = 15-20 minut

kamera yuzasi  $Sp.k. = \frac{W_{p.k.}}{hp.k.}$

kamerani balandligi  $h_{r.k.} = (0.8-0.9)H$

Tindirgichning konussimon (loyqa to,,planish bo,,limi) qismi 70-80 gradus qiya devorli bo,,lishi maqsadga muvofiqdir.

Vertikal tindirgichlarni qo,,llash suv tozalash stansiyasining quvvati 5 ming.m<sup>3</sup> gacha bo,,lganda tavsiya etiladi.

### **Muallaq cho,,kindili (Radial) tindirgichlar**

Suv tarkibidagi loyqa miqdori 200 dan 1500 mg/l gacha, tozalash stansiyalari quvvati 5000 m<sup>3</sup>/sutka dan yuqori bo,,lganda qo,,llaniladi. Muallaq cho,,kindili tindirgichlarning vertikal tindirgichga nisbatan tozalash darajasi yuqoridir [11].

Ish jarayoni: Reaksiya kamerasidan keyin suv maxsus quvurlar orqali (8) inshoot tubiga etkaziladi. Teshiklardan (9) tepaga ko,,tarilib chiqqan quyqa moddalar ichidan (muallaq cho,,kindidan) loyqali suv o,,tadi. Bunda moddalarning cho,,kish tezligi (gidravlik yirikliklari) suv harakati tezligi bilan teng bo,,lish sathigacha ko,,tariladi. Tindirilgan suv tepaga ko,,tarilib, tarnov orqali filtrga o,,tadi. Suv tarkibida qolgan moddalrani cho,,kish jarayoni davomi suv tarnoviga o,,tishgacha bo,,lib, moddalar cho,,kish zonasida yig,,iladi. Tindirish zonasining maydoni quyidagicha aniqlanadi:


$$F_{tind.} = \frac{K_{st.} \cdot q}{3,6 \cdot V_{tind.}}$$

Bunda: Kst. – suvni tindirish va cho,,kindi yig,,ish zonalar orasida tarqatilish koeffitsienti; Vtind. – tindirish zonasidagi suv oqimi chiqish tezligi (mm/s.).

Kst. va Vtind. QMQ 2.04.02-97 ning jadvali bo,,yicha loyqa miqdoriga va yil davriga bog,,liq holda tanlanadi. Masalan, loyqa miqdori 400 dan 1000 mg/l gacha bo,,lganda Vtind. qishki davrda 0.8-1 mm/s ga; yozgi davrda esa 1 – 1,1

gacha; Kst – 0,7-0,65 gacha o,,zgarib turadi. Past ko,,rsatkichlar xo,,jalik ichimlik suv tindirgichlari uchun ko,,rsatilgan.

Cho,,kindi qatlam balandligi 2 – 2,5 m qabul qilinadi. Tindirish zonasining balandligi (muallaq cho,,kindili qatlamidan suvni sathigacha) 1,5 – 2 m gacha qabul qilinadi.



**1.8- rasm. Muallaq cho'kindili tindirg'ich**

1 –tiniqlashtirgich; 2 - reaksiya kamerasi; 3 – kameraga suv yetkazib beruvchi quvur; 4 – tindirilgan suvni chiqarish; 5 – cho 'kindi yig 'ish zonasi; 6 – cho 'kindini chiqarish quvuri; 7 – tindirilgan suvni yig 'ish tarnovi; 8 – reaksiya kamerasidan inshootni tubiga suv beruvchi quvur.


Muallaq cho,,kindili tindirgichlar hozirgi kunda loyqali suvlarni tiniqlashtirish, suvni yumshatish va rangsizlantirish uchun foydalanilmoqda. Filtrlarga suvni yuborishdan oldin tindirgichlar o,,rniga suvni tindirish jarayoni muallaq cho,,kindili tindirgichlarda o,,tkazilishi mumkin. Bu jarayondan faqat dastlabki suvni reagent bilan ishlov berilgan hollardagina foydalanish mumkin.

Radial tindirgichlar suv tozalash inshootlarining quvvati 30 ming m<sup>3</sup> dan katta bo,,lganda tavsiya etiladi va qishloq va yaylovlardan suv ta“minotida ishlatilmaydi.

# OQAVA SUVLARNI BIOKIMYOVIY TOZALASHDA AEROTENK – TINDIRGICH BLOKINING TEXNOLOGIK SXEMASI TAVSIFI.

Sun'iy qurilmada biokimyoviy tozalash jarayoni aerotenklarda yoki biofiltrlarda olib boriladi [10, 11].

Aerotenkda tozalash: Aerotenk – bu temir betonli, havo o,,tib turuvchi (purkatuvchi - aeratsiyalanuvchi) rezervuarlardir. Aeratsiya, ya''ni havo bilan to,,yintirish, oqova suv va aktiv ilni kislorodga to,,yintirish maqsadida amalga oshiriladi.



**1.9-rasm. Biokimyoviy tozalash qurilmasining texnologik sxemasi.**


**1-birlamchi tindirgich; 2-dastlabki aerator; 3-aerotenk; 4-regenerator;**

**5-ikkilamchi tindirgich.**

Oqova suv avval 1-tindirgichga beriladi va bu yerda tarkibidagi turli mexanik hamda muallaq zarralardan ajratiladi. Shundan keyin tiniqlashtirilgan suv 2-dastlabki aerotenkgaga beriladi. Bu yerda oqova suv ikkilamchi aerotenkdan berilayotgan aktiv il va aeratsiya uchun berilayotgan havo bilan aralashadi. Aeratsiya jarayoni 15-20 min vaqt davomida o,,tkaziladi. Shundan keyin oqova suv ikkilamchi aerotenkgaga beriladi. Ushbu qurilmada biokimyoviy oksidlanish jarayoni ikki bosqichda o,,tadi: 1) aktivli yuzasiga organik birikmalarni adsorbsiyasi va kislorod yutilishi hisobiga oson oksidlanuvchi moddalarni minerallashishi; 2) sekin oksidlanuvchi organik birikmalarni oksidlanishi va aktiv ilni regeneratsiyasi. Ushbu bosqichda kislorod sarfi kamroq bo,,ladi. Aktivli bilan kontakt qilgan oqova

suv asosiy aerotenkdan keyin ikkilamchi tindirgichga beriladi. Bu yerda oqova suv aktiv ildan ajratiladi va tozalash sistemasidan chiqarib yuboriladi. Tindirgichda hosil boʻlgan aktiv ilning asosiy qismi aerotenkga, qolgani esa dastlabki aerotenkga beriladi.

Aerotenklar ochiq xoldagi basseyn boʻlib, ichida aeratsiya uchun moslama joylangan boʻladi. Ular ikki, uch va toʻrt koridorli boʻladi. Chuqurligi 2-5 m.



**1.20-rasm. Aerotenk-tindirgichi.**

1-lotok(ariq); 2-il co'ruvchi; 3-tindirish zonasi;

4-suv oqizish; 5-aeratsiya zonasi

Tozalash jarayonida hosil boʻlgan aktiv il tarkibida (quruq modda hisobida) 37-52% oqsil, 20-35% aminokislota, hamda V gruppasi vitaminlari mavjud boʻladi. Shuning uchun bu moddalar hayvonlarni, baliqlarni, parrandalarni boqish uchun xizmat qilishi mumkin.

Choʼkindi – aktiv il tarkibidagi erkin suvni ajratish uchun choʼkmaga zichlashtiriladi. Bunda aktiv il tarkibidagi 60% suv ajratiladi va choʼkmanning hajmi 2,5 baravar kamayadi. Tarkibida 99,2-99,5% suv boʻlgan aktiv illardan suvni ajratish qiyinchilik tugʼdiradi. Aktiv ilni zichlashtirish uchun gravitatsion, markazdan qochma va vibratsiya usullari qoʻllaniladi.

Choʼkindilarni barqarorlashtirish jarayoni tarkibidagi organik moddaning biologik parchalanadigan qismini uglerod dioksidiga, metanga va suvgacha yemirish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon mikroorganizmlar yordamida aerob va anaerob sharoitlarda olib boriladi.

Anaerob sharoitda cho,,kindini achitish metatenklarda olib borilib, bunda uning hajmi parchalanish va organik moddalarni minerallashi hisobiga deyarli ikki marta kamayadi. Cho,,kindining achimagan qismi bir xil donsimon strukturaga ega bo,,lib, quritish jarayonida suvdan oson xolos bo,,ladi va yoqimsiz chirindi xidga ega bo,,lmaydi.

Cho,,kmalarni reagentlar bilan ishlov berilishi koagulyatsiya jarayoni asosida olib borilib, bunda koagulyantlar sifatida  $\text{FeCl}_3$ ,  $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$ ,  $\text{FeSO}_4$ ,  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  hamda oxak ishlatiladi.

Reagentsiz usullarga elektrokoagulyatsiya, radiatsion nurlantirish, issiqlik bilan ishlov berish, muzlatish va eritish jarayonlari kiradi.

Eng oddiy usullardan biri – bu il maydonchalarida cho,,kmani quritish bo,,lib, bunda cho,,kmalarning namligi 75-80% gacha va hajmi hamda massasi 4-5 marta kamayishi mumkin. Ammo bu usul ko,,p vaqtini olib, katta maydonlarni band bo,,lishiga sababchi bo,,ladi.

Il maydonchalari – bu to,,rt tarafidan tuproq bilan ko,,tarilgan maydonchalpar bo,,lib, unga suv quyilganda suv maydonchadagi tuproq orqali sizib ketadi, il esa tuproq ustida qoladi. Maydonchaning tagida 1,5 m chuqurlikda suvni olish uchun drenaj quvurlari yotqiziladi. Drenaj quvurlari orqali suvni tozalashga yuboriladi. Lekin bu usul ham ma“lum qiyinchiliklarga ega, chunki drenaj ishlamay qolganda sizib o,,tayotgan suv yer osti suvlarini ifloslantiruvchilanishiga hamda yer usti va atmosfera havosini ifloslantiruvchilovchi manbaga aylanadi. Shuning uchun oxirgi paytlarda mexanik suvsizlantirish usullari kengroq qo,,llanilmoqda.

Buning uchun filtrlar va sentrifugalar ishlatiladi. Cho,,kmalarni ishlatish imkonи bo,,lmasa, ya“ni toksik hususiyati yuqori bo,,lsa, unda ular maxsus ajratilgan shlam yig,,gichlarga yuboriladi. Shlam yig,,gichlar to,,liq to,,lgandan so,,ng o,,rnatilgan tartib asosida konservatsiya qilinadi.

Biologik tozalashning anaerob usuli kislorodsiz faoliyat ko,,ruvchi bakteriyalarning qo,,llanilishiga asoslanib, bunda suvni ifloslantiruvchilovchi organik moddalar yopiq havosiz metantenk apparatlarida achitiladi. Ushbu usulning qo,,llanilishi chegaralangan bo,,lib, odatda oqova suv tarkibidagi organik


ifoslantiruvchilovchi moddalarning konsentratsiyasini 10-20 marta kamaytirish uchun ishlatiladi. Keyin esa oqova suv aerob usulda tozalanadi. Lekin ikki bosqichli usulning murakkabligini inobatga olgan holda bu usul suv tozalashda kam ishlatilib, asosan cho,,kmalarni hamda ortiqcha aktiv ilni achitish bilan metantenklarda yonuvchan hususiyatga ega bo,,lgan biogazni olish uchun ishlatiladi.

## **II. OQAVA SUVLARNI BIOKIMYOVIY TOZALASHDA AEROTENK – TINDIRGICH BLOKINI AVTOMATIK ROSTLASH**

### **Aerotenk – tindirgichni avtomatik rostlashning funksional sxemasi bayoni.**

Biokimyoviy tozalash. Oqava suvlarni biokimyoviy tozalash qurilmalari tozalash majmuining pirovard bo,,g,,ini hisoblanadi.Uni oqavalardagi organik moddalarni oksidlash yo,,li bilan apparatlarda (aerotenkalarda) yoki suv havzalarida (ko,,l, kanallarda) o,,tkaziladi. Oqava suvlar aerotenkdan so,,ng tindirgichga yo,,llanadi, u yerdan esa tozalangan oqavalar kanalizatsiyaga oqib o,,tadi, bakteriyasi bor loyqaning bir qismi esa aerotenkga retsirkulyatsiya qilinadi. Olingan loyqa aralashmasini yaxshilab aralashtirish va kislorod bilan to,,yintirish uchun aerotenknинг pastki qismiga havo beriladi [5, 12,13].

Biokimyoviy tozalash avtomatlashirishning asosiy vazifasi oqava suvdagi va aktiv loyqadagi organik moddalar va erigan kislorod miqdori, aktiv loyqa konsentratsiyasi va boshqa parametrlar o,,zgarib turadigan sharoitda mikroorganizmlarning (oksidlovchilarning) xayotiy faoliyatini taminlovchi bir qator omillarni optimal darajada saqlab turishdan iborat. 2.1-rasmida “aerotenk-tindirgich” blokini avtomatik rostlash sistemasi keltirilgan bo,,lib, u uchta rostlash konturidan iborat: erigan kislorod konsentratsiyasi, aktiv loyqaga nagruzka (yuklanish) va ortiqcha loyqani chiqarish.



**2.1-rasm. Aerotenk – tindirgich blokini avtomatik rostlash sistemasi.**

Erigan kislorod konsentratsiyasi rostlagichi 3 loyqa aralashmasining butun hajmiga erigan kislorodning berilgan konsentratsiyasini saqlab turish uchun aerotenk 1 ning xavo yurish yo„lidagi romtlovchi klapan 15 ga tasir ko„rsatadi. Nagruzka (yuklanish) ning ARS aktiv loyqaga shunday tarzda tasir ko„rsatadiki, bunda aerotenkgaga tushayotgan iflosliklarning miqdori va qaytayotgan loyqa miqdori orasidagi nisbat doimiy qolsin. Organik birikmalar konsentratsiyasi datchigi 7 dan va oqava suv datchigi 4 dan chiqayotgan signallar ko„paytirish bloki 9 bilan ko„paytirilib, uning chiqish signali sarflar nisbati rostlagichi 11 ga uzatiladi. Sarflar nisbati rostlagich 11 qaytadan loyqa sarfini o„zgartiruvchi rostlovchi klapan 13 ga tasir ko„rsatadi.

Ortiqcha loyqani chiqarishni rostlash ARS shunday tasir qiladiki, bunda aerotenk 1 dagi umumiyligini va tindirgich 2 dagi umumiyligini loyqa massasi o„zgarmas qolsin. Oqava suv ortiqcha loyqa sarflari datchiklari 4 va 6 dan, aktiv loyqa konsentratsiyasi datchigi 8 dan va ko„paytirish blklari 9 va 10 dan chiqqan

signallar hisoblash bloki 12 ga keladi, u esa tozalash sistemasidagi aktiv loyqa massasini hisoblaydi. Hisoblash bloki 12 sistemadan chiqariladigan loyqa miqdorini o,,zgartiruvchi rostlovchi klapan 14 tasir qiladi.

## OQAVA SUVLARNI BIOCIMYOVIY TOZALASHDA AEROTENK – TINDIRGICH BLOKINI AVTOMATIK ROSTLASH HISOBI

Boshqaruv obyekti sifatida aerotenk-tindirgichini tanlaymiz.

Aerotenk aktiv ilidagi suv harorati rostlash kattaligi hisoblanib, maqsadimiz berilgan sath bo,,yicha suv haroratini rostlash. G,,alayonlanishlar - tashqi muhit harorati. Boshqarish signali aerotenkga berilayotgan bug,, hisoblanadi.

Aerotenkdagi haroratni rostlash tizimining funksional sxemasi 2.1-rasmda ko,,rsatilgan.



2.2-rasm. Boshqarish tizimining funksional sxemasi.

Aerotenk harorati termopara orqali o,,lchanada va elektr signaliga aylatirilib taqqoslash elementiga beriladi.

Taqqoslash elementi Topshiriq beruvchi qurilma va datchikdan kelgan signallarni taqqoslab o,,zgarish bo,,lsa rostlagichni harakatga keltiradi.

Bu yerda ijo mexanizmi asinxron dvigateli bo,,lib, rostlagich signaliga ko,,ra rostlash organini harakatga keltiradi. Bu esa aerotenka berilayotgan bug,, hajmini o,,zgartiradi [5, 10].

Rostlagich sifatida PI rostlagichi olindi.

Agar aerotenkdagi harorat berilgan qiymat bilan bir xil bo,,lsa PI – rostgagich beriladigan signal 0 ga teng bo,,ladi. Aerotenkdagi harorati berilgan qiymatdan o,,zgarishi, kuchlanishlar har xillagini keltirib chiqaradi va bu xatolik signali deyiladi. Xatolik signali rostlagichdan ijo mexanizmiga beriladi. Ijo mexanizmi rostlash organini harakatga keltiradi.

Aerotenkdagi harorat o,,zgarishini quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$( ) \quad \quad \quad$$

O,,lchash qurilmasini o,,zatish funksiyasi

$$( ) \quad \quad \quad$$

Bu yerda:  $k$  – kuchaytirish koeffitsenti,  $T$  – termopara.

Topshiriq beruvchi qurilmaning vazifasi topshiriq signalini ishlab chiqishdan iborat. O,,tish funksiyasi quyidagicha:

$$( )$$

Asinxron dvigateli quyidagi formula tasvirlanadi.

$$( ) \quad ( ) \quad ( )$$

Bu yerda – vaqtini elektromexanik doimiyligi - valni burilish burchagi, - g,,altakga ta“sir etuvchi kuchlanish qiymati, - yuklanish momenti, ----- asinxron dvigatellarni uzutish koeffitsiyenti.

Asinxron dvigatelni o,,zatish funksiyasi quyidagicha bo,,ladi.

$$( ) \quad \overline{( )}$$

$$-; \quad \quad \quad -$$

Asinxron dvigatelni texnik xarakteristikasi quyidagicha.

$$=241 \text{рад/с}; \quad =12,8 \text{ H*m}; \quad =230 \text{ В.}$$

Rostlash organini matematik tavsifi quyidagicha bo,,ladi.

$$( ) \quad ( )$$

Bu yerda - valni burilish burchagi, – bug,, hajmi, - rostlash organiga berilgan koeffitsiyent.

Shunday qilib, rostlash organini uzatish funksiyasi quyidagicha bo,,ladi.


$$( )$$

Ushbu rostlash blokiga PI – rostlagich tanlandi va uni uzatish funksiyasi quyidagicha.


$$( ) \quad —$$

Bu yerda - proporsional zveno koeffitsiyenti, - integral lash vaqtı,

Yuqoridagi formulalardan foydalanib Matlab dasturini Simulink ilovasida jarayonni avtomatik rostlash tizimi modelini quramiz.



**2.3-rasm. Aerotenk blokidagi haroratni avtomatik boshqarish tizimini kompyuter modeli.**



#### **2.4 – rasm. O‘tish jarayon grafigi.**

Boshqaru obyektiga ta“sir qiluvchi tashqi muhitning har xil harorat bo,,yicha aerotenk tindirgich blokidagi haroratni boshqarish tizimi ishlab chiqildi. O,,tish jarayon grafigidan ko,,rinib turibdiki o,,tkinchi jarayonning g,,alayonlanish vaqtini 50 min tashkil qiladi. Boshqarish tizimi ishonchli.

#### **Oqava suvlarni biokimyoviy tozalash jarayonini uchun avtomatika vositalarini tanlash.**

##### **Nasos qurilmasini tanlash.**

Texnik vazifani bajarish uchun quvvat hisobini amalga oshirish kerak va katologdan shu quvvatga mos keluvchi qurilmani tanlash kerak.

Qo,,yilgan texnik vazifa nasos ishchi g,,ildiragini aylanish chastotasini o,,zgartirish orqali bosimni rostlash bo,,lganligi tufayli ushbu qurilmaga tanlanadigan yuritmada dvigatel valini aylanish tezligini o,,zgartirish imkoniyatiga ega bo,,lishi kerak [5,12,13].

Elektryuritma tizimida asosiy tarkibiy tashkil etuvchi bu – elektr dvigateldir. Ma“lumki, asinxron dvigatellar qo,,llanilganda elektryuritmaning ishonchligi ortadi, hamda kapital xarajatlar va ekspluatatsion sarflar kamayadi.

Nasos qurilmasini tasnifi.

Suvni tozalash stansiyasida markazdan qochma AD 5000-32 (24NDn) tipdagi nasoslar o„rnatilgan.

Nasosni shartli belgilanishi: AD 5000-32 (24NDn)

Nasos (agregat)

A – ishchi g„ildirak aylanishining birinchi varianti

D – ikki tomonlama kirish;

5000– suv sarfi, m<sup>3</sup>/s;

32 – napor, m;

2.1-jadval. Ramadan-1 NS da o„rnatilgan AD 5000-32 (24NDn) tipdagi markazdan qochma nasosning ishchi parametrlari.

Parametrlari	Belgilanishi	Ko„rsatgichi	O„lchov birligi
Suv sarfi	Q	3200 (0,8)	m <sup>3</sup> /s
Napor (bosim)	H	32	m
Aylanish chastotasi	n	730	ayl/min (sek)
Maksimal iste“mol qiladigan quvvati	N	630	kVt
Yo„l qo„yiladigan kavittsion zahira	ΔH	8	m, kam bo„lmaqan
Nasos massasi	m	5000	kg
FIK	η <sub>M</sub>	88	%

Nasoslar shunday mexanizmlardirki, bunda ma“lum bir vaqtida dvigatel valiga qanaqa yuklama tushishini aniq aytib bo„lmaydi. Agarda nasos ishini statik sifatda ko„rib chiqsak, suv iste“moli ko„pgina muddat davomida uncha yuqori bo„lmaydi, shu tufayli rostlash tizimi nasos tezligini shu darajada pasaytiradiki napor doimiy saqlanib turishi uchun. Buning evaziga tarmoqdan iste“mol qilinadigan quvvat ham kam bo„ladi, lekin shunday holatlar ham uchraydiki, iste“mol va o„z navbatida tezlik ham katta bo„ladi.

Shu tufayli dvigatelni nasosning nominal parametrlari bo,,yicha tanlash maqsadga muvofiqdir.

### **Chastota o,,zgartirgich qurilmasini tanlash.**

Yuritmaviy dvigatelni normal ishlashi uchun ta“minot tarmog,,idagi elektr energiya parametrlarini o,,zgartirish hamda dvigatelga uzatiladigan elektr energiya kattaliklarini o,,zgartirish va dvigatel tezligini rostlash funksiyalarini o,,zgartirgich qurilmalari bajaradi. Yuqorida ko,,rib chiqilganidek o,,zgartirgich qurilmasi sifatida chastota o,,zgartirgich (CHO,,) lar tanlanadi, skalyar SHIM-modulyatsiyali IGBT tranzistorlaridagi kuchlanish avtonom invertorlari bazasidagi [8].

Chastota o,,zgartirgichni tanlashda quyidagi asosiy talablarga amal qilish kerak:

- har qanday ish rejimida yuqori ishonchlilik.
- boshqarish tizimining oddiyligi, chiqish tokining asosiy parametrlari, kuchlanishi va CHO,, ning funksional imkoniyatlari yomonlashmagan holda.
- quvvati 500 kVA bo,,lgan diapozondagi o,,zgartirgichning mumkin bo,,lgan minimal narxi.

Elektr energiyani o,,zgartirgich sifatida «Stroytexavtomatika» firmasining CTA-B9.HVI-400kVt tranzistor chastota o,,zgartirgichni tanlaymiz.

O,,zining kuch sxemasi bo,,yicha ushbu boshqarilmaydigan to,,g,,rilagich tipidagi 2 zvenoli o,,zgartirgich-keng impuls modelyatsiyali avtonom kuchlanish invertori. AIN ning kuch qismi tranzistor modullaridan tuzilgan asosida IGBT (izolyatsiyalangan zatvorli bipolyar tiranzistorlar) tipdagi tiranzistorlarga ega. O,,zgartirgich mikroprotsessor boshqarish tizimiga ega bo,,lib, quvvati 630 kVt gacha bo,,lgan asinxron dvigatellarni bosh qarishga mo,,ljallangan.

Ushbu o,,zgartirgichli yuritmani ta“minotining chiziqli kuchlanishi 6kV o,,zgartirgichni boshqarish tizimi o,,rnatilgan proporsional-integral-diffirensial regulyator bor bo,,lib, uning raqamli bosh qarish pulitidan kiritiladi. Regulyatorga

kerakli parametrlarni kirdizish bilan suv o,,tkazi magistiralidagi bosimni rostlash mumkin.

Bosim muammosi, qaytma aloqa kattaliklari muammosini analikli ravishda, ko,,pfunksional analik ishlarni qo,,llashyordamida amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari o,,zgartirgich dvigatelni o,,rnatilgan ishga tushish va to,,xtash vaqtlarida silliq ishga tushish va tormozlanishini ta“minlaydi.

O,,rnatilagn himoya modullari maksimal tok himoyasi, kuchlanish bo,,yicha sxemalarni o,,ta yuklanishdan himoyalash, tiranzistorlarni qizib ketishidan himoyalash, dvigatelni o,,ta yuklanishi va bosh qa turdagи himoyalarga ega.

2.2-jadvalda «Stroytexavtomatika» firmasining CTA-B9.HVI-6 kV-400 kVt chastota o,,zgartirgichning asosiy xarakteristikalarini keltirilgan.

2.2-jadval.CTA-B9.HVI - 6 kV o,,zgartirgichlarning nominal ko,,rsatkichlari

STA-V9. HVI-6 kv					
Chiqish xarakteristikalarini	To"liq quvvati (kVA)	400	500	630	800
	Nominal quvvat (kVt)	315	400	500	630
	Chiqish toki (A)	39	48	61	77
	Fazaga ulanadigan kuch yachiykalarining soni			5	
Massa-gabarit xarakteristikalarini	O"lchamlari(Uzunligi x Balandligi x Kengligi)				4000x2000x1100
	Og"irligi (kg)	3500-4000		4400-4800	
Chastota o,,zgartirgichning kirish parametirlari	Kirirsh kuchlanishi chastotasi				50/60 Hz +/-3%
	Kirish kuchlanishi				6 kV
	Ruxsat etilgan kuchlanish Yo"qolishi vaqt				100 ms
	Quvvat koeffitsienti				> 0.97 (nominal yuklamada)
	FIK				>96%(nominal yuklamada)
	Boshqarish metodi				AS-DS-AS&DS SHIM
	Chiqish chastotasining diapazoni				0-60 Hz

	Chiqish chastotasinig aniqligi	0.1 Hz
	Yuklanish qobilyati	120% (1мин), 150% (2с), 160% (бевосита химоя); ЧП с высокой перегрузочной способностью 150% (1мин), 180% (2с), 200% (непосредственная защита).
	Ishga tushish /tormozlanish vaqtı	6-1200 s
	Analog kirish	0-5 V, 0-20 mA, 4-20mA(2 kirish)
	Analog chiqish	0-10 V, 0-20mA, 4-20mA kuchlanish,tok va chastota chiqishlari (3 chiqish)
	Qaytish aloqaning analog signali	0- 5 V, 4-20 mA (2 chiqish)
	MBP bilan aloqasi	Interfeys RS-485
	Mantiqiy kirish/chiqish	24-kanal/16-kanal
Himoya funktsiyalari	Tok bo'yicha o'ta yuklanish, ortiqcha yuklanish, qisqa tutashuv, fazalar disbalansi, ta'minot kuchlanishining qisqa vaqtiga yo'qolishi, kirish/chiqish fazasini yo'qolishi, kuchlanish bo'yicha o'ta yuklanish, kuchlanishning tushib ketishi, qizish, tashqi hatolik bo'yicha o'chib qolish	
Atrof muhit parametirlari	Ish rejimida tashqi muhitning harorati	0°C- +40°C
	Saqlash va transportirovka qilishdagi harorat	-40°C- +70°C
	Sovutish	Havo,majburiy
	Namlik	<90% (kondensatsiz)
	Dengiz sathidan balandligi	<1000m
	Himoya darajasi	IP30



**2.5-rasm. «Смроўтэхавтоматыка» firmasining CTA-B9.HVI-6 kV-400 kVt chastota o‘zgartirgichi.**

O, zgartirgich yuritmaviy mashina va mexanizmlarni quyidagi ish rejimlari va boshqaruvini ta“minlaydi:

- silliq ishga tushirish
- o,,rnatilagan aylanish chastotasi va quvvatida uzoq ishlashini;
- harakatlanishni reverslash, tormozlash va to,,xtatish;
- elektr va mexanik qurilmalarni avariyaviy va anormal rejimlarda himoyalash.

Ushbu elektr yuritmani qo,,llashni samaradorligi quy idagilar bilan asoslangan:

- yuqori sifatdagi statik va dinamik xarakteristikalar;
- yuqori energetik ko,,rsatgichlar;
- ishchi parametr va rejimlarni o,,zgartirishning yengilligi;
- rivojlangan interfeys va turlixiltashqi boshqarish tizimlari va avtomizayiyalarga moslashuvchanligi, jumladan yuqori darajadagi;
- yuqori montaj
- o,,rnatish tayyorgarligiga ega ekanligi;
- ekspluatatsiyada boshqarish va xizmat ko,,rsatishning oddiyligi va qulayligi.

## **Bosim datchigini tanlash.**

Ushbu loyiha uchun “Metran” firmaning bosim datchigi tanlandi.



**2.6-rasm. Metran-100 bosim datchigining umumiy ko‘rinishi.**

Metran-100 bosim datchigi avtomatik nazorat, rostlash va boshqarish tizimlariga ishlashga mo„ljallangan bo„lib, bosimni uzviy ravishda unifikatsiyalangan analog signalga o„zgartirishni ta“minlaydi.

Datchik nasosning ishchi bosimi  $N_{nom}=32m=3,5$  atm. bo„yicha tanlanadi va bunda maksimal ishchi bosim quyidagiga teng.

$$R_{maks} = k \cdot N_{nom} = 1,2 \cdot 3,2 = 3,84 \text{ atm (3.2)}$$

Eng yaqin ishchibosimli datchikni tanlaymiz.

Metran-100 bosim datchigi avtomatik nazorat, rostlash va boshqarish tizimlariga ishlashga mo„ljallangan bo„lib, bosimni uzviy ravishda unifikatsiyalangan analog tok va/yoki HART-protokol bazasidagi raqamli signalga o„zgartiradi, quyidagi o„lchanadigan kattaliklarni masofadan uzatadi:

ortiqcha bosim – Metran-100-DI;

Atrof-muxitni o„lhash: suyuqlik, bug„ gaz jumladan, gazsimon kislorod va tarkibida kislorod bo„lgan gaz birikmalari.

O„lchanadigan bosimning diapazonlari:

- minimal 0-0,04 kPa
- maksimal 0-100 MPa

Asosiy xatoliklar:  $\pm 0,1\%$ ,  $\pm 0,15\%$ ,  $\pm 0,25\%$ ,  $\pm 0,5\%$ ;

Chang va suvdan h imoya lanish darjası IP65.


Chiqish signallari:

- doimiy tokning analog signali 4-20mA, 0-5mA, 0-20mA. Exdatchiklari uchun – faqat 4 -20mA;
- 4-20mA doimiy tokning analog signali, HART standartdagi keltirilgan ra qamli signalli;

Datchikning imkoniyatlari

- o„lchanayotgan bosimni mavjud ko„rsatgichini nazorat qilish, datchik parametrlarini rostlash va nazorat qilish
  - “nol” ni o‘rnatish;
  - o‘lhash birliklari tizimini tanlash va sozlash; chiqish signalini o‘rtachalash vaqtini sozlash (dempfirlash);
  - o‘lhash diapazonlarini qayta sozlash, jumladan nostandart uchun (25:1, 16:1, 10:1);
  - “aralashgan” o„lchov diapazoniga sozlash;
  - chiqish signalini kirish signaliga nisbatini tanlash: (chiziqli -o„suvchi, chiziqli -kamayuvchi, bosim tushuvining kvadrat tezligiga proporsional):
    - datchikni kalibrovkalash;
    - o„z-o„zini doimiy diagnostikalash;
    - datchik parametrlarini masofadan turib testlash va boshqarish;
    - sozlovlarini rejalashtirilmagan o„zgartirishdan himoyalash: Tekshiruvlar intervali – 3 yil;
- Kafolatlangan ekspluatatsiya davri -3 yil.

Datchikning umumiyo ko„rinishi 3.6-rasmda ko„rsatilgan



**2.7-rasm. Metran-100-Di datchikni umumiy ko‘rinishi**

## **Aerotenk – tindirgich blokining elektr ta“minotsxemasi**

Elektr manbaa tizimlarini loyixalashni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

- manbaani tanlash;
- avtomatlashtirish tizimlarining manbaa shchitlari va yig,,ilmalarini tanlash va joylashtirish;
- manbaa tarmog,,ini loyixalash;
- taqsimlash tarmog,,ini loyixalash;
- elektr manbaa prinsipial chizmasini bajarish.

Elektr manbaa tizimi manbaasini asboblarni normal ishlashini ta"minlovchi kuchlanish va quvvatiga mos ravishda tanlanadi. Odatda, o,,lchov asboblariga berilayotgan manbaaning o,,zgarishi nominal qiymatdan -5†+10%ga ruxsat beriladi.

Ta"minlash va taqsimlash tarmog,,larining boshqarish va himoyalash apparatlarini (rubilniklar, avtomatlar, qisqa tutashdan saqlagichlar) manbaa shchitlari va yig,,ilmalariga joylashtiriladi [5, 12,13].

Elektr yuritmalarini va asboblar yuklamalari nisbatiga qarab, elektr yuritmala ga manbaani aloxida (elektr yuritmalar quvvati yuqori bo,,lganda) yoki birga bitta manbaa shchiti va yig,,ilmasidan amalga oshirish mumkin.

Manbaa tarmog,,ini loyixalash quyidagilarni o,,z ichiga oladi:

- Kuchlanishni, faza va simlar sonini va manbaa tarmog,,i konoriguratsiyasini tanlash;
- rezerv masalasini xal qilish;
- boshqarish va ximoya apparatlarini joylashtirish.

Elektr manbaa tizimlarida odatda uch fazali o,,zgaruvchan tok (380/220v kuchlanishli yoki 220/127v ham bo,,lishi mumkin) qo,,llaniladi.

Manbaa tarmog,,i uchun fazalar va simlar sonini ushbu tizimdagи avtomatlashtirish vositalari va asboblari turiga qarab tanlanadi.

Bir fazali elektr qabul qiluvchilar uchun bir fazali ikki simli (fazanol) tarmoqlar ishlatiladi.

Agar tarmoqga yuklama juda katta bo,,lsa uch fazali manbaa tarmoqlari ishlatiladi. SHuningdek, uch fazali elektr qabul qiluvchilar uchun ham uch fazali tarmoqlar ishlatiladi.

Elektr manbaa tizimlarida boshqarish apparatlari sifatida rubilniklar, paketli o,,chirgichlar tumblerlar ishlatiladi. Avtomatlar boshqarish va ximoya funksiyalarini barobar bajaradilar.

Saqlagichlar tarmoq va aloxida elektr qabul qiluvchilarni qisqa tutash va ortiqcha yuklamalardan ximoya qilish uchun ishlatiladi. Saqlagichlili rubilniklar avtomatlardan sodda va arzon bo,,ladi. Bu apparatlar manbaasi ulangan joyda va shchit va avtomatlashtirish tizimlarining manbaa yig,,inmalarga kirishda o,,rnatiladi.

Elektr manbaa tizimini taqsimlash tarmog,,ini loyixalash manbaa tarmog,,ini loyixalashdagi operatsiyalar kabi amalga oshiriladi. Xar bir elektr qabul qiluvchi shchit yoki manbaa yig,,ilmasiga aloxida rodial chiziq bo,,ylab ulanadi.

Kuchlanishni tanlash manbaa tarmog,,ini loyixalashdagidek. SHchitlarni statsionar yoritish uchun 220v kuchlanishdan foydalaniladi. SHkaflı shchitlarda tor joyda ishlarni bajarishda 36v yoki 12v kuchlanishdan foydalaniladi. Ba''zi asboblarga manbaa transformatorlar orqali beriladi.

Taqsimlash tarmog,,ida ko,,pincha paketli o,,chirgichlar, saqlagichlar ishlatiladi.

Avtomatlar qisqa tutashish toklariga sezgir bo,,lsa qo,,llaniladi.

Agar asbobning o,,zida o,,chirgich va saqlagichlari bo,,lsa, unda unga ximoya va boshqarish apparatlari o,,rnatilmaydi.

Elektr yuritmalar, ijrochi qurilmalarning manbaa zanjirida ximoya va boshqarish apparatlari sifatida rubilnik, saqlagich, magnitli yoquvchi yoki avtomat va magnitli yoquvchilar ishlatiladi.


Manbaa prinsipial elektr chizmali manbaa va taqsimlash tarmoqlari uchun aloxida yoki bitta chizmada berilishi mumkin.

Manbaa tarmog,,i chizmasida ximoya va boshqarish apparatlari ko,,rsatiladi. Apparatlar aloxida xarf-raqam belgilanish, kuchlanishning nominal qiymati ko,,rsatiladi.

Taqsimlanish zanjirlari chizmasida manbaaning kirishi va chiqishlarni ko,,rsatiladi. Hamda elektr qabul qiluvchilarga, ximoya va boshqaruv apparatlariga, transformatorlarga, manbaa yoritish lampalariga chiqishlar ko,,rsatiladi. CHizmaning pastki qismida jadval berilib, ushbu manbaa shchitidan unda-elektr qabul qiluvchilar ro,,yxati keltiriladi, yana spetsifikatsiya bo,,yicha pozitsiya nomerlari, quvvati, kuchlanishi va o,,rnatilish joyi ko,,rsatiladi. SHuningdek elementlarning xarfli-raqamli belgilanishlari ko,,rsatiladi. Manbaa chizmasidagi hamma zanjirlar markirovkalanadi. SHartli belgilanishlar, xarfli belgilanishlar xuddi boshqarish va signallash chizmalaridagidek GOST 2.710-81, GOST 2.755-87, GOST 2.747-69, GOST 2.755-76 bo,,yicha amalga oshiriladi.

Taqsimlanish tarmog,,iga manbaa manbaa tarmog,,ining asosiy manbaa tarmog,,idan va unda kuchlanish bo,,lmay qolganda rezerv manbaa tarmog,,idan berilishi ta“minlangan. Buning uchun asosiy manbaa tarmog,,iga ulangan kuchlanish relesi PM1 va rezerv manbaa tarmog,,iga ulangan kuchlanish relesi PM2 va ularning kontaktlaridan foydalaniladi. Asosiy manbaa tarmog,,ida kuchlanish mavjud bo,,lsa, PM1 rele ishlab, o,,zining normal ochiq 1PM1 va 2PM1 kontaktlarini ulaydi va taqsimlanish manbaa tarmog,,iga kuchlanish beriladi. Asosiy manbaa tarmog,,ida kuchlanish bo,,lmay qolsa, PM1 rele boshqarish o,,ramiga kuchlanish berilmaydi va uning normal ochiq kontaktlari 1PM1 va 2PM1 uziladi, normal yopiq 3PM1 kontakti esa ulanib, rezerv manbaa tarmog,,idagi rele PM2 ishlaydi va o,,zining normal ochiq 1PM2 va 2PM2 kontaktlarini ulab, taqsimlanish tarmog,,iga rezerv manbaa tarmog,,ini ulaydi.

Uch fazali manbaa tarmog,,ida ham rezerv manbaa tarmog,,ini ulanishi bir fazali manbaa tarmog,,iga o,,xhash bo,,ladi.



## Boshqarish va signallash chizmalarini bitta principial chizmada berilgan.

Bajarayotgan vazifalariga qarab boshqarish chizmalarini mexanizmlar transport tizimlarining elektr yuritmalari boshqarish ko'rinishida bajarilishi mumkin. Signallash chizmalarini esa, texnologik signallash chizmalarini, ishlabi

chiqarish xolatlarini signallash chizmalari, topshiriqlarni bajarilishini signallash chizmalari va yong,,in xavfsizlik signallash chizmalariga bo,,linadi [5,13].

Boshqarish va signallashning struktura chizmalari ishlab chiqilgandan so,,ng, prinsipial chizmalarga o,,tiladi. Manba kuchlanishi tanlanadi va chizma apparatlar bilan taminlanadi. CHizma o,,zgaruvchan tok mabaasi kuchlanishi 220v, 380v o,,zgarmas tok kuchlanish 60v, 48v, 24v, 12v bo,,lishi mumkin.

CHizma apparaturasini ishlatilayotgan manbaga qarab, bino xarakteristikasiga qarab, talab qilinayotgan kontaktlar soniga qarab tanlanadi.

Elementlar prinsipial chizmalarda ESKD bo,,yicha GOST.2.710-81 ga asosan belgilanadi. Hamma apparatlar chizmada normal xolatda ko,,rsatiladi (masalan, rele kontaktlari boshqarish o,,ramiga signal berilmagan xolatda ko,,rsatiladi).

Prinsipial elektr chizmalarining hamma elementlari uch qismdan iborat bo,,lgan pozitsion belgilarga ega bo,,ladi.

Belgilashning birinchi qismi bir yoki ikki xarfli kodda bajariladi.

Ikkinci qismida elementning tartib raqami keltiriladi.

Belgilashning uchinchi qismi elementning funksional vazifasiga moslanadi. Masalan, R2N-2-rezistor, o,,lchovchi sifatida ishlatilayotgan. (GOST 2.710-81).

R3F-3-rezistor, qisqa tutashdan saqlagich sifatida ishlatilayotgan elektr zanjirlarni markirovka qilish GOST 2.709-72 asosida amalga oshiriladi. Avtomatlashtirsh tizimlarida markirovkalash uchun 3 gurux sonlar qo,,llaniladi. Boshqarish, nazorat qilish va rostlash zanjirlarini 1†399 1001-1399, 2001-2399 raqamlari bilan markirovkalaniladi. Signallah zanjirlari 400-799; 2800-2999 raqamlari bilan markirovkalanadi. Elektr manba zanjirlari 800-999; 1800-1999 raqamlari bilan markirovkalanadi.

Rasmda elektryuritmalarini boshqarish chizmasi keltirilgan. Manbani boshqarish zanjiri fazalararo kuchlanish 380v bilan yoki faza kuchlanishi bilan amalga oshiriladi.

Elektryuritmani boshqarishning prinsipial chizmasi 25-rasmda keltirilgan. Bu chizmada quyidagi belgilanishlardan foydalanilgan:

SV1 va SV2 – yoqib o,,chiruvchi knopkalar, KM-kontaktor magnitli, KK-issiqlik relesi, FU-qisqa tutashdan saqlagichlar, QS-rubilnik.

Elektr yuritma yoquvchi SV1 va o,,chiruvchi SV2 knopkalar yordamida ishga tushiriladi va o,,chiriladi. SV1 bosilganda KM boshqarish o,,ramidan tok o,,tib, kontaktor o,,zagi magnitlanib, yakorni tortadi va KM normal uziq kontaktlarni ulaydi. Bunda ulovchi kontakt SV1ning blokirovkalovchi kontakti va elektr yuritmaga manba“ni ulovchi KM kontaktlar ham ulanadi. Elektr yuritma ishga tushadi. Elektr yuritmani to,,xtatish uchun SV2 o,,chiruvchi knopka bosilib, KM ga manba uziladi. Bunda blokirovkalovchi KM kontaktlari ham uziladi. Elektr yuritma ishdan to,,xtaydi. Elektr yuritmaga yuklama oshib ketganda, elektr yuritmani kuyishdan saqlash uchun, issiqlik relelari ishga tushadi va manba“ni uzadi. Elektr yuritmani qayta ishga tushirish uchun yoquvchi SV1 knopka bosilib, KM kontaktori zanjiri ulanadi.


Texnologik signallashning prinsipial elektr chizmasi quyidagi rasmda keltirilgan.

Texnologik kontakt SQ1 ulanganda, K2 relening normal ulangan kontakti ulanib, K1 rele boshqarish o,,ramlaridan tok o,,tadi va bu uning normal ochiq kontaktlari K1larining ulanishiga sabab bo,,ladi. Natijada, tovushli signal NA ishlaydi, hamda VD2 diod orqali K2 rele zanjiri ulanadi K2 normal ochiq kontaktlari yordamida zanjir blokirovkalanadi. Rele K2 ishlaganda, o,,zining signallash lampasi N1 zanjiridagi K2 normal ochiq kontaktlarini ulab signal lampani N1 yoqadi va normal yopiq kontakt K2 ni uzib, K1 relesi zanjirini SQ1 kontaktdan uzadi. SB2 knopka bosilishi bilan K1 rele zanjiri uzilib NA o,,chadi.

Xuddi shunday boshqa texnologik parametrlar chegara qiymatlarga kelganda texnologik kontaktlar (SQ2 va boshqalar) ulanib, signal lampalari yonadi.

Signal lampalarini ma“lum vaqt oralig,,ida tekshirib turish uchun tekshirish knopkasi SB1 bosiladi. Bunda ham rele K1 zanjiri ulanib, rele K1 ishlaydi va o,,zining normal ochiq kontakti orqali hamma signal lampalar zanjirini K2, K3 normal yopiq kontaktlar yordamida yoqadi. Agar birorta lampa yonmasa, unda bu lampa kuygan bo,,ladi va uni almashtirish kerak bo,,ladi. Bu tekshirish signalidan

so,,ng, signaldan qaytish knopkasi SB1 bosiladi va bunda K1 relesi zanjiri uziladi. Hamma lampalar o,,chadi.



**2.9-rasm. Uch fazali matorni ishga tushirish va boshqarishning prinsipial elektr sxemasi**

### **III. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

Hozirgi zamон fan va texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni hamma tarmoqlarida juda katta o„zgarishlarga sabab bo„lmoqda. Bu o„zgarishlar bir jihatdan jamiyatimiz a“zolarini turmush darajasini, mehnat sharoitini yaxshilanishiga sabab bo„lsa ikkinchi tomonidan turli xil yangidan – yangi inson hayoti faoliyatiga havf tug„diruvchi sog„ligiga zarar yetkazuvchi salbiy oqibatlarga olib keluvchi voqeа–hodisalariga sabab bo„lmoqda [17].

Respublikamiz xalk xo„jaligini yo„nalishlaridan biri bo„lgan qishloq va suv xo„jaligi sohalarida mehnatkashlarning hayot faoliyati havfsizligini ta“minlash masalalari muhim aqamiyatga kasb etadi.

Sanoat va maishiy-xo„jalik oqava suvlarini tozalash jarayoni qo„yidagi havfsizlik talablariga javob berishi kerak:

- oqava suvlarni tozalash amaldagi sanitar meyorlari talabiga javob be-rishi shart;
- oqava suvlarni uzatish tizimida nosoz ishlatishga ruhsat etilmaydi;
- kanalizatsiya quvurlari, quduqlarining chuqurligi 1,0 m dan kam bo„lmasligi va xizmat ko„rsatish tizimlari yoki skobalar (tutqichlar) bilan jihozlangan bo„lishi kerak;
- ma“muriy binodan ochiq neftushlagichlargacha bo„lgan masofa 30 m dan, nef-tushlagichga xizmat qiluvchi nasos va idishlargacha bo„lgan masofa 10 m dan kam bo„lmasligi kerak;
- ishlab chiqarish oqava suvlari quduqlarining qopqoqlari yopik bo„lishi, hamda 10 sm dan kam bo„lmasligi qum qatlami bilan ko„milgan bo„lishi kerak;
- ochiq neftushlagich atrofida 50 m dan kam bo„lmasligi masofada, sanoat oqava suvlari quduqlaridan 20 m dan kam bo„lmasligi masofada olovli ishlarni bajarish taqiqlanadi;
- oqava suvlari quduqlarining ichida ish bajarishda, quduqqa tushishdan oлdin, u yerdagi zararli va portlovchi moddalar miqdori ruxsat etilgan miqdordan ko„p bo„lmasligini ta“minlash kerak;

- zaharli gazlar yig,,ilishi ehtimoli bo,,lgan quduqlarda ish bajarganda gazga karshi niqobdan foydalanish, hamda ikkitadan kam bo,,lmagan kuzatuvchi bo,,lishi, quduqdagi ishchi har 15 minutda almashtirilishi kerak;
- ochiq olovdan foydalanish, tamaki chekish taqiqlanadi;
- kuchlanishi 12 voltdan yuqori bo,,lmagan fonarlardan foydalanish kerak;
- ish joyida quduqdar va zadvijkalarini ochish va yopish kabi xizmatlarni ko,,rsatish uchun chilangar, belko,,rak, lom, ilmoqlar, asbestos lentalari, salniklar, prokladkalar to,,plami, mayda ehtiyot qismlar, artish ashyolari kabi invertarlar bilan ta“minlanishi shart;
- uskunalarni, tozalash inshooti hududidagi yo,,laklar va zinalarni qish vaqtлari qor va loylardan tozalab turish zarur;
- ishchi-xodimlar habsizligini saqlash, o,,t o,,chirish vositalarini soz holda saqlash va ulardan foydalanishni bilishlari shart.

Og,,ir uglevodorod suyuqlik yokilg,,i hisoblanadi va toksikologiya tasnifi bo,,yicha havflilik jihatdan DS 12.1.007 ga ko,,ra IV sinf moddalar tarkibiga kiradi.

Og,,ir uglevodorod bug,,lari markaziy asab tizimiga zararli ta“sir ko,,rsatadi, teri qoplamasi, ko,,zning shillik pardasi va yuqori nafas olish yo,,llarining qichishiga sabab buladi.

Uglevodorod bug,,larining ishchi xonalar havosida ruhsat etilgan - 32 - chegaraviy konsentratsiyasi (REChK) DS 12.1.005 bo,,yicha  $300 \text{ mg/m}^3$  dan oshmasligi kerak.

Vodorod sulfid bug,,larining aralashmada yalpi yig,,indisi  $3 \text{ mg/m}^3$  dan oshmasligi kerak.

Ruhsat etilgan chegaraviy konsentratsiya - REChK meyori aholi yashaydigan joylar havosida uglevodorodlar  $1 \text{ mg/m}^3$  dan, oltingugurt birikmalari  $0,008 \text{ mg/m}^3$  dan oshmasligi kerak.

Havo muhitida vodorod sulfidi va oltingugurt birikmalari miqdorini aniqlash uchun gazanalizatori yoki shu maqsad uchun mo,,ljallangan asboblar bilan o,,lchanadi.

Kondensatni ichimlik suvida bo,,lishiga yo,,l qo,,yilmaydi; uni bor yo,,qligini aniqlash suv yuzasida hosil bo,,lgan yog,, qatlamini ko,,rish orqali aniqlanadi.

Atmosfera havosini zararli moddalar chiqindilaridan muhofaza qilish uchun DS 17.2.3.02 ga muvofiq ruhsat etilgan chiqindilar miqdorini doimiy nazoratini tashkil etish zarur [16].

Og,,ir uglevodorod bug,,lari havo bilan qo,,shilganda portlash havfi bo,,lgan aralashmani vujudga keltiradi. Havoda kondensat bug,,larining alanga olishi hajmi bo,,yicha pastki chegara -1,4 %, yuqorisi - 8 %. Og,,ir uglevodorod bug,,larining pastki yonish harorati 0  $^{\circ}$ C, o,,z-o,,zidan alangalanishining yuqori chegarasi 380  $^{\circ}$ S.

Og,,ir uglevodorodni saqlash va ishlatish xonalarida ochiq alangadan foydalanish taqiqlanadi; elektr jihozlar, elektr tarmoqlari va sun"iy yoritish uskunalari, portlash-yong,,in havfsizligi talablariga javob berishi kerak.

Og,,ir uglevodorod bilan ishlayotganda, urilganda uchqun chiqadigai uskunalardan foydalanishga yo,,l qo,,yilmaydi.Og,,ir uglevodorodni saqlash va tashish uchun mo,,ljallangan quvurlar va sig,,imlar DS 12.1.018 bo,,yicha, statik elektr tokidan himoyalangan bo,,lishi kerak.

Og,,ir uglevodorodni quyish, to,,kish, sig,,imlarni yuvish va namuna olish bilan bog,,lik bo,,lgan ishlar DS 12.4.011 ga muvofiq nafas olish organlari va ko,,zni saqlashda shaxsiy himoya vositalarini qo,,llash kerak. Og,,ir uglevodorod bilan qisqa muddatli ishlar olib borilayotganda gazga qarshi niqobning A - turi, uzoq muddatli ishlarda esa shlangli gazga karshi niqoblardan foydalaniladi.

Og,,ir uglevodorod bilan ishlash uchun, tibbiy ko,,rikdan o,,tgan, sog,,lom shaxslarga ruhsat etiladi. Teri-allergik kasalliklari va nafas olish yo,,llari patologiyasi bo,,lgan shaxslar ishga jalgan etilmaydi.

Og,,ir uglevodorod bilan ishlayotganda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish kerak. Og,,ir uglevodorod tananing ochiq joylariga tushganda uni darhol ketgazish va terini sovunli ilik suv bilan darhol yuvib tashlash zarur; ko,,z shillik pardasiga tushganda ko,,zni suv bilan yuvib tashlash zarur.

Yong,,in va portlash havfi bo,,yicha ishlab chiqarish, ishlab chiqarish binolari va tashqi qurilmalarga tavsiflar

3.1- jadval

<b>Ishlab chiqarish xonalarining nomi (tashqi qurilmalarning nomi)</b>	<b>Yong,,in va portlash havfi bo,,yicha toifasi</b>	<b>Ishlab chiqarish xonalarining va tashqi qurilmalarning portlash havfi tasnifi (ETK )</b>		<b>Yongin havfi bo,,yicha sinfi (etk;)</b>
		<b>Portlash havfli sinfi</b>	<b>Portlash havfli guruhi va toifasi</b>	
Ma“muriy bino, kuzatuvchilar xonasi va oshxona	D	-	-	P-Pa
Kompressor xonasi va payvandlash posti	V	-	-	P-Pa
Qozonxona	G	-	-	V-1a
TP-14,15	V	-	-	P-Pa
Flotator	A	-	-	P-SH
Nasosxonalar	A	-	-	P-Pa
Mexanik aralashmalardan tozalash qurilmasi	A	-	-	V-1g
Biologik tozalash qurilmasi	D	-	-	P-Pa
Biologik havzalar	D	-	-	P-Pa
Mexanik aralashma havzalari	D	-	-	P-Pa

Maishiy-xo,jalik oqava suvlarini tozalash texnologik jarayonida ro,,y berishi mumkin nosozliklar va ularni bartaraf etish choralari

3.2- jadval

<b>№</b>	<b>Ro,,y berishi mumkin bo,,lgan nosozliklar</b>	<b>Nosozliklarning ro,,y berish sabablari</b>	<b>Nosozliklarni bartaraf etish usullari</b>
1	Tindirgichda cho,,kmalarni yuzaga chiqishi va ko,,p miqdorda gaz ajralishi	Cho,,kindilarni o,,z vaqtida tozalamaslik, cho,,kindilar uyumi mavjudligi	Erlift jarayonini tekshirish. Erliftda havo miqdorini oshirish
2	Aerotenkada kislород miqdorini tez kamayishi	Kompressor to,,xtab qolgan	Zahiradagi kompressorni kushish. Havo berish sama-rasini tekshirish
3	Aerotenkada erigan kislород miqdorining kamayishi	Kam havo berilgan	Zaxiradagi kompressorni qo,,shish. Kompressordan havo berish miqdorini tekshirib ko,,rish
4	Aerotenkada faol loyqalarning konsentrasiyasining tushishi	Aerotenkga juda ko,,p miqdorda faol loyqalarni tashlash. Faol loyqalarni ko,,p qismi erlift bo,,yicha yig,,uvchiga berilgan	Loyqa maydoniga to,,yingan faol loyqalarni tashlashni to,,htatish. Aerotenkga havoni qayta taqsimlash. Tindirgichdagи faol loyqalarni aerotenkda aylanishini ko,,paytirish.
5	Ho,,jalik maishiy oqava suvlar tarkibida azot ammoniy va fosfor miqdorini kamayishi	Biogen to,,ldirish eritmasida konsentratsiya past	Eritma konsentratsiyasini oshirish yoki beogen to,,ldirishni miqdorini ko,,paytirish
6	Tindirgichda loyqalar uyumi hosil bo,,lishi	Tindirish vaqt meyordan ko,,p	Tindirgichdan loyqalar olish miqdorini oshirib, loyqalarni tindirish vaqtini kamaytirish
7	Tindirgichdan faol loyqalarni chiqib ketishi	Tindirish vaqt meyordan kam	Oqava suv berish miqdorini kamaytirish

Sanoat oqava suvlarini tozalash jarayonida ro,,y berishi mumkin bo,,lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari

3.3- jadval

<b>№</b>	<b>Ro,,y berishi mumkin</b>	<b>Nosozliklarning ro,,y</b>	<b>Nosozliklarni bartaraf etish</b>
----------	-----------------------------	------------------------------	-------------------------------------

	<b>bo,,lgan nosozliklar</b>	<b>berish sabablari</b>	<b>usullari</b>
1	Qum ushlagichdan mexanik aralashmani ko,,p miqdorda o,,tishi	Oqava suvlarni oqim tezligi normadan yuqori bo,,lishi	Zahiradagi qum ushlagichni ishga qo,,shish va oqimni qum ushlagichlarga teng taqsimlash
2	Qum ushlagichdan chiquvchi ariqda suyuqlik sathining yuqoriligi	Gidrozatvorli quduqda cho,,ma sathining qoriligi, hamda neft ushlagichdan gidrozatvorli quduqgacha bo,,lgan quvur to,,lganligi	Quduqni cho,,kma to,,lib qolgan joyni aniqlash va tozalash
3	Neft ushlagichdan keyin neft mahsuloti meyordan ortiq	Bo,,linmalarda oqim tezligining yuqoriligi, kuchli emulsiyali oqavalarni kelishi, hamda ular tarkibidagi neft mahsulotlarining ko,,pligi	Zarb so,,ndirish kudug,,iga kirish zadvijkasi orqali oqava miqdorini kamaytirish Neft emulsiyasi kelish manbasini aniqlash, zarurat tug,,ilganda ajralib chiqqan neftni qayta yig,,ib olishni tashkil etish
4	Bo,,linmadan neft mahsulotlari juda kam o,,tadi yoki umuman o,,tmaydi	Neft ushlagichdan drenaj idishgacha bo,,lgan neft haydash quvuri to,,lib qolgan. Drenaj idishi to,,lib ketgan	Neft ushlagichdan drenaj idishgacha bo,,lgan neft quvurini tozalash, zarurat tug,,ilsa bug,,latish, hamda neftni dishdan haydab olish
5	Gidroelevator bilan pulpa haydash yomon amalga oshganda	Gidroelevator nasoslari sovitish quvurlari to,,lib qolgan	Sovitish tizimini yuvib chiqish va quduqdagi yurish tizimini begona jinslardan tozalash

Gidromeliorativ tizimlarda amalga oshiriladigan asosiy ish turlari, jihozlar va mexanizmlarning HFH bo,,yicha tavsifi aniqlanishicha, gidromeliorativ tizimlarda baxtsiz hodisalar 70 % atrofida mashina-mexanizmlarga bog,,liq ravishda sodir bo,,lar ekan [17].

Nasos stansiyadagi gidrotexnik asbob-uskunalarga va gidrotexnik inshootlarga xizmat ko,,rsatishda turli ehtiyot choralarini ko,,rilishi talab qilinadi.

Gidromexanik asbob-uskunalarning hamma aylanadigan qismlari ehtiyotlab qo,,yilishi lozim. Mashina zalida poli quruq bo,,lishi kerak.

Mashina zalida kuchlanish 12 V bo,,lgandagina ko,,chma yoritgichlardan foydalanish mumkin. Hamma o,,tish joylari va deraza eshik o,,rinlari, basseynlar va suv tashlagich bosh uchastkalari panjaralar bilan to,,sib qo,,yiladi. Kerak bo,,lgan joylarda inshootlarning aytib o,,tilgan joylari, shuningdek, suv havzasi yoritiladi. Xas cho,,plarni tutib qoluvchi panjaralardagi axlatni tozalab olishda, tozalash mashinalari va moslamalarining troslaridan ushlab turish yoki tiqilib qolgan axlatni “o,,ziga” tomon tortib tozalash mumkin emas, elektr bilan isitiladigan panjaralarni yerga ulash lozim.

Nasos stansiyasida qurilma va anjomlarni ta“minlash (anjomlari) ishlarining bir qismi bino ichidagi ta“minlash maydonchasida bajariladi va bunda elektr toki yordamida payvandlashdan foydalaniladi. Payvandlash ishlarini maxsus o,,qigan, havfsizlik texnikasi va yong,,in havfsizligi bo,,yicha bilimlari sinalgan shaxslar olib borishi kerak. Payvandchi ishni bajarish jarayonida turli xil kuyishlar va shikastlardan himoya qilish maqsadida brezentdan tayyorlangan maxsus kiyim-bosh bilan ta“minlanadi.

Elektr uchquni ta“siridan yuzni va ko,,zni himoyalash uchun svetofiltr o,,rnatiladigan maskali shitlardan foydalaniladi. Elektr payvandchilari GOST13.03.0003-75. GOST12.3. 002-75 hamda SNIP 3-4-80 talablari va yong,,in havfsizligi qoidalari asosida bajarilishi kerak. Ishni bajarishdan oldin payvand apparatlari transformatorlarning korpuslari, payvandlovchi konstruksiya va buyumlar yerga ulanishi kerak elektroapparatlar, payvand kabellari elektrodumlagich va maskasi shitlarni ishlatishdan oldin yaxshilab tekshirib ko,,riladi. Elektr tarmog,,i bilan payvand apparati oralig,,idagi elektr simning uzunligi 10 m dan oshmasligi, elektrodga boruvchi kabelning uzunligi esa 15-25 m bo,,lishi lozim. Elektr kabellari suvdan va turli moylardan himoyalanganadi. Himoyalangan yoki shikastlangan va ochilib qolgan kabellar almashtiriladi yoki ochiq joyiga rezina shlang taqib havfsizlantiradi. Payvand ishlari bajariladigan uchastka yengil yonuvchi materiallardan (5 metr radiusda) va portlash havfi bor

bo,,lgan materiallardan (10 m radius) tozalangan bo,,lishi kerak. Yuqorida amalga oshiriladigan ishlardan tashqari, gidromeliorativ tizimlarda bajariladigan barcha ishlarda mehnat havfsizligi qoidalariiga bo,,ysungan holda amalga oshirish uchun ko,,rsatmalar, MX qoidalari va talablari asosida olib boriladi.

### **Elektr toki bilan jarohatlanish havfsizligi**

Elektr toki ta“sirida odam organizmiga kimyoviy, issiqlik va biologik ta“sir ko,,rsatadi.

Kimyoviy ta“sirda odam organizmida suyuqlik va qon parchalanadi. Issiqlik ta“sirida esa tananing ba“zi qismlari kuyadi. Biologik ta“sir natijasida elektr toki tirik hujayralarni qaltiratadi va muskullarni qisqartirishga olib keladi. Elektr toki urganda eng havfli ta“sir ko,,rsatib, nerv sistemani, yurak va nafas olish organlarini ishdan chiqaradi. Elektr toki organizmni jarohatlaganda quyidagi faktorlar ta“sir etadi: tok kuchi, odam tanasi qarshiligi, kuchlanish, tok chastotasi, tok yo,,li, davomiyligi va odamning organizmini tuzilishi.

Odamga ta“sir etuvchi tokning qiymati quyidagicha:

- 1) Sezilarli tok (2 mA) gacha- sezilarli qaltirash.
- 2) Man etilgan tok (10-25 mA) qo,,l bilan simlarni siqib olish.
- 3) Ribrillyatsionniy tok (50 mA dan yuqori). Tananing qarshiligi 100.000 dan 100 Om gacha o,,zgaradi.

Tok bilan urganda tok urish yo,,liga bog,,liq eng havfli urish, tok qachonki qo,,ldan oyoq orqali o,,tishda sodir bo,,ladi, chunki bunda odam organlari yurak va o,,pkasi orqali o,,tadi.

Hattoki odamga kichik tok ta“sir etganda odamning ba“zi muhim nuqtalari orqali o,,tganda, o,,limgacha olib boradi. Bunga qo,,lning orqa tomoni, qosh atrofi, umurtqa, nerv tolalarining ko,,proq joylari kiradi.

### **Elektr qurilmalarini himoya uchun yerga ulash va nollashtirish**

Elektr tokidan himoya qilishning ishonchli va keng tarqalgan vositalaridan biri elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish hisoblanadi. Elektr qurilmalarini yerga ulashda qurilmaning elektr toki ta“sirida bo,,lmagan metall qismi, masalan, korpusi, yerga ko,,milgan elektrodlarga ulanadi. Shu sababli yerga

ulash sistemasi elektrodlar va elektr qurilma bilan elektrodni birlashtiruvchi o,,tkazgichlardan iborat bo,,ladi [17].

Yerga ulash elektrodlari sun"iy (aynan shu maqsadda maxsus yerga ko,,milgan po,,lat truba yoki boshqa turdagи metall buyumlar) va tabiiy (boshqa maqsadlarga yerga o,,rnatilgan metall buyumlar) ko,,rinishda bo,,lishi mumkin.

Tabiiy elektrodlarga suv quvurlari, bino va inshoatlarining temir beton konstruksiyalarini yerga ko,,milgan detallari misol bo,,la oladi. Gaz va neft quvurlaridan yerga ulash elektrodi sifatida foydalanish taqiqlanadi.

Sun"iy elektrodlar sifatida po,,lat trubalar, burchaksimon po,,latlar, armaturalar va temir polosalardan foydalanish mumkin. Bunday elektrodlarning uzunligi 2...3 m, qalinligi 3,5 mm dan kam bo,,lmasligi zarur.

Elektrodlarni bir-biriga ulashda ko,,ndalang kesimining o,,lchami  $4 \times 12$  mm bo,,lgan simlar yoki diametri 6 mm dan kam bo,,lmasligi simlardan foydalaniladi.

Elekt uskunalari va jihozlari quyidagi hollarda yerga ulanadi:

1. 380 V va undan yuqori kuchlanishdagi o,,zgaruvchan tok va 440 V va undan yuqori kuchlanishdagi o,,zgarmas tok bilan ishlovchi barcha uskuna va jihozlar;

2. 42 V dan 380 V gacha kuchlanishdagi o,,zgaruvchan tok va 110 V dan 440 V gacha kuchlanishdagi o,,zgarmas tok bilan ishlovchi elektr jihozlari;

3. 42 V dan undan kichik kuchlanishdagi o,,zgaruvchan tok va 110 V va undan kichik kuchlanishdagi o,,zgarmas tok bilan ishlovchi portlashga moyil elektr jihozlari hamda payvandlash transformatorlarining ikkilamchi o,,ramlari.

Bundan kam kuchlanishdagi elektr jihozlarini yerga ulash shart emas.

Standart talablari bo,,yicha quvvati 100 kVt gacha bo,,lgan elektr qurilmalarining yerga ulash qarshiligi 10 Om gacha, quvvati 100 kVt dan ortiq bo,,lgan elektr qurilmalari uchun esa 4 Om gacha bo,,lishi talab etiladi.

## IV. IQTISODIY QISM

Qishloq va suv xo,,jalik ishlab chiqarish jarayonlarni avtomatlashtirish qishloq xo,,jaligini elektrlashtirish soxasining samarali yo,,nalishlardan biridir.

Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida avtomatlashtirish vositalari ishlatilmoqda. Bunday vositalarni ishlatish ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, mahsulot birligiga qo,,l mehnati sarfini kamaytiradi, texnologik uskunaning unumdorligini oshiradi, mehnat madaniyatini ko,,taradi va sharoitni yengillashtiradi [18,19].

Sho,,ni esda saqlash kerakki, avtomatlashtirish progressiv yo,,nalish bo,,lsa ham doim samarali bo,,lavermaydi. Sanoatni avtomatlashtirish tajribasini ko,,rsatishicha, yillik ekspluatatsion harajatlar mahsulot birligiga kamida 25-30% qisqargandagina avtomatlashtirish samarali bo,,ladi. Qishloq xo,,jalik ishlab chiqarishini avtomatlashtirishni quyidagi hollarda samarali deb hisoblash mumkin:

- 1) mehnat unumdorligi oshadi va bevosita harajatlar qisqaradi;
- 2) mahsulot arzonlashadi va uning sifati oshadi;
- 3) odam mehnati yengillashadi va kapital harajatlar kamayadi.

Agar avtomatlashtirish natijasida mazkur ishlab chiqarishdagi ishlab chiqarish sarflari kamaygan bo,,lsa, tejamkorlik miqdori tejamkorlikni, qo,,shimcha kapital sarflarni hamda tizimni ishga tushirishda sarflangan mablag,,ni hisobga olingan tarzda baholanadi.

Boshqarish tizim joriy etish natijasida erishilgan yillik daromadni quyidagi formula bo,,yicha hisoblash mumkin.

---

bu yerda:  $G_1$  va  $G_2$  - boshqarish tizimini joriy etishdan avval va undan keyin amalga oshirilgan mahsulotning bir yillik hajmi (pul ifodasida);

P - boshqarish tizimini joriy etishdan avvalgi daromad;

S - ishlab chiqariladigan mahsulotning bahosi birligidagi sarf tejamkorlik;

E- kapital mablag,,ning iqtisodiy unumdorlik normativ koyeffitsiyenti ( $E=0,2...0,3$ );

K- avtomatlashtirishda sarflangan kapital mablag,,

Agar avtomatlashtirish tizimini joriy etish natijasida mahsulot ishlab chiqarishdagi mablag,, sarfi kamaymasa, avtomatlashtirish ishlab-chiqarish rentabelligi darajasi teskari ta“sir qilib, asosiy fondlar bahosini oshiradi deb hisoblash kerak.

Tannarxi va solishtirma kapital mablag,,lari bo,,yicha bir yillik iqtisodiy foydani aniqlash uchun boshlang,,ich ko,,rsatgichlar sifatida texnik-iqtisodiy ko,,rsatgichlari bo,,yicha o,,xhash mahsulotni ishlab chiqaruvchi eng yaxshi texnologik jarayon yoki usulning ko,,rsatgichlari olinishi kerak. Iqtisodiy faktorlar bo,,yicha mahsulot birligiga sarflangan mablag,,lar minimal bo,,ladigan tadbirlarga mos ko,,rsatkichlar boshlang,,ich deb hisoblanishi lozim.

Avtomatlashtirishdagi iqtisodiy unumdorlikning asosiy ko,,rsatkichlarini sarflangan harajatni qoplay olish muddati va iqtisodiy unumdorlik koeffitsiyenti tashkil qiladi. Harajatni qoplash muddati  $T_{qop}$  quyidagi formulalar bo,,yicha aniqlanadi:

---

(       )

bu yerda K- avtomatlashtirishga sarflangan kapital mablag,,;

A- yangi ishga tushirilgan jixozning baxosidan olib tashlangan amortizatsiya;

E- shartli yillik iqtisodiy daromad;

$S_1, S_2$  - avtomatlashtirishdan keyingi natural birlikda chiqarilgan yillik mahsulot.

Kapital mablag,,larning iqtisodiy daromad koeffitsiyenti E butun korxona ko,,rsatgichlariga ta“sir qiluvchi tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi

(        )

Avtomatlashtirishni joriy etib bo,lgandan so,,ng avtomatlashtirishning amaldagi iqtisodiy daromadini chiqarilayotgan mahsulotning avtomatlashtirishdan avvalgi va keyingi tannarxini solishtirish yo,,li bilan tadqiq qilish, tannarxi va uning ayrim tarkibiy qismlariga ta“sir qiluvchi faktorlarni kritik analiz qilish lozim. Bunda tadqiqot avtomatlashtirishning afzalligi va kamchiliklari haqida fikr yuritishga imkon beradi.

## V. ATROF-MUXIT MUHOFAZASI

Bizni o,,rab turgan atrof muhitni shartli ravishda beshta asosiy tashkil etuvchiga ajratish mumkin. Bular suv resurslari (yer yuzi va yer osti suv manbalari); havo basseynlari; yer- (-tuproq- zamin) va bioqatlam-o,,simlik dunyosi (flora) va hayvonot dunyosi (fauna) [16].

Bitiruv malakaviy ishim doirasida o,,rganilayotgan obyektning yuqorida sanab o,,tilgan tashkil etuvchilarning har biriga mumkin bo,,lgan zararli ta“sirlari tahlil qilinadi. Bu zararli ta“sirlarning mumkin qadar oldini oluvchi maxsus ekologik tadbirlarni ishlab chiqish, qilinadigan tahlilning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Misol tariqasida quyidagi tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Suv ta“minotining “yopiq zanjirli” aylanma tizimlarini loyihalash va qurish;
2. Filtr qurilmalarining regeneratsiya suvlarini tozalash inshootining bosh qismiga yuborishni tashkil etish;
3. Tozalash inshootlarida hosil bo,,ladigan cho,,kmalarni zararsizlantirish va utilizatsiya qilish;
4. Obyektning xududini ko,,kalamzorlashtirish;
5. Ikkilamchi energiya turlarini issiqlik ta“minoti va ventilyatsiya sistemalariga joriy qilish;
6. Issiqlik ishlab chiqaruvchi qozonxona qurilmasi chiqindilarini cheklash tadbiri;
7. Inshootlar atrofidagi havo muhitini muxofoza qilish tadbirlarini belgilash;
8. Obyekt joylashgan xudduda atrof – muhitning yomonlashuvining oldini olish.

**Suvni tozalash inshootlari.** Tozalash inshootlarida xizmat kursatish uchun zaruriy xizmatchilar soni maxsus jadval buyicha aniklanadi. Bu jadvalda inshootlarini joriy remonti va avariya natijalarini bartaraf kilish buyicha barcha sarflar hisobga olingan.

Xizmatchilarni umumiy soni, injener-texnik hodimlarni hisobga olgan holda, vodoprovod – kanalizatsiya boshqarmasi tomonidan maxalliy sharoitlar, stansiyani quvvati va tarkibi hamda inshootlarni murakkabligiga qarab belgilanadi.

PPO (ROK) – rejali ogohlantiruvchi kuzatish.

PPR (ROR) – rejali ogohlantiruvchi remont.

Inshootlarni, moslamalarni va jihozlarni ROK va ROR maxsus jadvalga asosan mahalliy sharoitlarga bog,,liq holda o,,tkaziladi.

**Reagent xo,,jaligi va aralashtirgich.** Reagent xo,,jaligi reagentlarni tayyerlash va dozalash uchun xizmat qiladi. Reagent xo,,jaligida xizmat ko,,rsatishda ishchilar maxsus kiyimda bo,,lishlari va ishdan son dush qabul qilishlari kerak.

Reagentni torazida tortish va dozalash maxsus protivogazlarda utkaziladi. Omborlarda 30 kunli reagent saqlanishi zarur (eng kami 7 kunli).

Quruq reagentlarni saqlash yopiq va ventilyatsiyalashtirilgan xonalarda o,,tkaziladi. Eritma va gazsimon reagentlarni omborlarda saqlash maxsus davlat texnik havfsizlik qoidariga bog,,liq holda bajariladi. Ballon va bochkalarda xlorni saqlash maxsus yopilgan, ventilyatorlar bilan jihozlangan bo,,lib boshqa binolardan kamida 300 m masofada joylashadi.

Aralashtirgichlarda reagentlarni tez va tekis aralashtirilish o,,tkaziladi. Nam hissalashda aralashtirish 1-2 min, quruq hissalashda esa  $> 3$  min o,,tkaziladi. Aralashtirish tezligi 0,3 – 0,6 dan 1 m/s gacha.

Aralashtirgichlarni kuzatish, tozalash va joriy remontlarni bajarish reja bo,,yicha ish kam bo,,lgan davrlarida o,,tkaziladi.

**Reaksiya kamerasi.** Reaksiya kamerasida parchalar hosil bo,,lish jarayoni o,,tadi. R.k. ishlatishda suv harakati kamerani bosh qismida 0,2 – 0,3 m/s dan 0,05 - 0,1 m/s gacha saqlanishi zarur. Suv harorati pasayishi koagulyatsiya jarayonini to,,g,,ri o,,tkazilishiga ta“sir qiladi. Parchalar hosil bo,,lish shartlari – suv yumshoq bo,,lganda pH = 5 – 6, qattiq va loyiqli suvlar uchun pH = 6,5 – 7,5. Dastlabki suvni xlorlash koagulyant mikdorini 20 – 50 % ga kamaytiradi.

Reaksiya kamerasi va aralashtirgichlar kamida yil davomida 1 marta tozalanadi va 5 % temir kuporosi bilan yuviladi. Sungra 25 % xlor eritmasi bilan dizenfeksiyalanadi.

**Tindirgichlar.** Vertikal va gorizontal tindirgichlarni ishlatishda cho,,kindini to,,planishi ustida nazorat qilib turish va kamida uch oyda bir marta suvni tindirgichda teng tarqatilishini hamda tarnovlar va lotoklar holatini tekshirib turish zarur.

Yig,,ilgan loyqalarni tindirgichdan chiqarish kamida yiliga bir marta, odatda ko,,p suvli davri oldida amalga oshiriladi.

**Filtrlar.** Ishlatiladigan koidalar va reja bo,,yicha filtr ishlatiladi Filtrni kuzatish,tozalash va kamaygan qumni to,,ldirib borish ishlari bajariladi. Remontdan keyin filtr kuyidagicha ishga tushiriladi: filtr asta-sekin drenaj sistemasi orqali tiniq suv bilan to,,ldirilib qum bo,,shliqlari orasidan havo o,,tkaziladi.

Shu bilan birga qumni gorizontal holati saqlanishi kerak.

Filtrdagи suvning sathi qumdan 200 – 300 mm ko,,tarilgandan so,,ng, pastdan suv berish to,,xtatilib, yuqoridaн yemboshdagi chuntak orqali filtr to,,lguncha suv beriladi.

Suv hisobiy sathga yetgandan keyin 20 – 30 min. saqlab so,,ngra yuvib kanalizatsiyaga yuboriladi. So,,ngra filtr xlorli suv yordamida (aktiv xlor miqdori 20 – 50 mg) zararsizlantiriladi.

Xlor bilan suvni bo,,lish vaqtı 24 soat. Yuvindi suvdagi koldiq xlor mikdori 0,3 – 0,5 mg/l dan kam bo,,lmasligi kerak.

Filtrlarni ishga solish 2 – 3 m/soat filtrlash tezligida boshlanib asta-sekin hisobiy tezligigacha ko,,tariladi.

Ikki qatlamlı, ustki qatlamlari antratsit donali bo,,lgan filtrlarda ish ikki bosqichda bajariladi.

Avval faqat shag,,al va qum bilan to,,ldirilib bir oy zarrachalar gidravlik qonuniyat bo,,yicha joylashguncha qadar ishlatiladi.

Bu vaqt davomida mayin qum (0,5 – 0,6 mm dan kichik donali) chiqarib yuboriladi. Sungra tekshirish mayin qum qolmaganing kursatsa antratsit donali

katlamasi yetkiziladi. Filtr 0,5 ( 0,6 m balandlikdagi suv bilan tuldirilib 3 – 4 soat davomida antratsit bushliklaridagi xavo chikib ketishi kutiladi. Keyin katlam suv sarfini asta – sekin oshirib ( 7 – 8 l/sm<sup>2</sup> dan boshlab) kumir changidan tozalanadi.

Ikki qatlamlili filtrni qullash loyqaligi 50 mg/l gacha bo,,lgan suvni tindirmasdan tozalash imkonini beradi.

Koagulyatsiyalash bevosita filtrdan oldin bajariladi.

Sekin filtrlar ish jarayonida biologik pardanining va qumni yuqori qismi holati kuzatib turiladi.

Ustki ifloslangan qismi o,,z vaqtida olib tashlanishi kerak.

Tozalanayotgan suvda maxsus mikroorganizmlar soni 1000 – 1500 dona/ml bo,,lsa fitoplanktonlar hosil bo,,lmasligi uchun filtrlar joylashgan binolarga yorug,,lik tushishini oldini olish maqsadga muvofikdir.

**Suvni zararsizlantirish inshootlari.** Suvni zararsizlantirish uchun xlor gazsimon, xlor ohaki va gipoxloridlar holida ishlatilishi mumkin.

Xlorga bo,,lgan talab 50 kg/sut gacha bo,,lganda zararsizlantirish faqat ballonlarda amalga oshiriladi. Xlor sarfi undan katta bo,,lganda ballonlar yoki bochka – konteynerlar (hajmi 1000 l gacha) qo,,llanishi mumkin [16].

Gazsimon xlor ballonlardan chiqib ketish hollarda uni xomut, ho,,l latta yordamida yoki xlor chiqadigan joyiga suv oqimi yo,,llash bilan tuxtatish mumkin. Agar xlor chiqish tuxtamasa ballonga qutilar (futlyar) kiydiriladi yoki ballonlar 10% tiosulfat eritmasi bilan tuldirilgan vannaga botiriladi. Bunda 200 – 300 kg quruq joyida saqlanadigan ohak yoki natriy tiosulfati zarur bo,,ladi. Texnik-havfsizligi qoidalariga binoan shkaflarda individual himoya vositalari saqlanishi zarur.

## XULOSA

Hozirgi kunda Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy manbalardan samarali foydalanish hamda yuzaga kelgan global ekologik muammolarni xal etish dolzarb masalalardan biri bo,,lib turibdi. Shu o,,rinda ichimlik suvidan tejamkorlik

bilan foydalanish va ifoslantiruvchilangan oqova suvlarni tozalash xamda aylanma suv ta“minoti tizimini joriy etish muxim axamiyatga egadir.

Shundan kelib chiqqan xolda meni malakaviy bitiruv ishim loyihasi sanoat korxonalarida kimyoviy moddalar bilan ifoslantiruvchilangan oqova suvlarni mexanik tozalash usuliga bag,,ishlangan bo,,lib, men o,,z loyixamda quyidagi ishlarni bajardim.

- birinchi navbatda mavjud usullar obzorini ishlab chiqdim va shuni asosida o,,z loyixamga oqova suvlarni mexanik usulda tozalashning tindirish yo,,li bilan amalgalash usulini tanladim.

- texnologik jarayonini bayoni va jarayon sxemasini bayonini keltirdim.

- bitiruv malakaviy ishning hisob qismida asosan asosiy qurilmaning texnik hisobini bajardim va material balansini tuzib chiqdim.

- asosiy qurilmani mexanik, gidravlik, mexanik, konstruktiv hisoblarini amalgalash usulini tanladim.

- yordamchi va qo,,shimcha appratlarini hisobini bajardim va loyixam uchun kerakli qurilmalarni tanladim.

- hayot faoliyati xavfsizligi bo,,limi bajarildi va mexnat va yong,,in xavfsizligi bo,,yicha chora tadbirlar ishlab chiqildi.

- jarayonni avtomatlashtirish bo,,limi bajarildi va texnologik jarayonning asosiy parametrlari avtomatlashtirildi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro,,yxati**

1. O,,zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O,,zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo,,yicha Harakatlar strategiyasi to,,g,,risida"gi farmoni.
2. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O,,zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T. - «O,,zbekiston» - 2016 y.
3. O,,zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2017 - 2021 yillarda ichimlik suvi ta"minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to,,g,,risida"gi 20.04.2017 y. qabul qilingan PQ-2910-sonli qarori
4. O,,zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2017 - 2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to,,g,,risida"gi 04.05.2017 y. qabul qilingan PQ-2954-sonli qarori
5. Yusupbekov N.R., Muxamedov B.E., G"ulomov SH.M. Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish. Darslik, – Toshkent: O,,qituvchi, 2011. -576 b.
6. Н.Р.Юсупбеков, Х.С.Нурмуҳамедов, С.Г.Зокиров. Кимёвий технология асосий жараён ва қурилмалари. - Т.; «Шарқ», 2003. - 644 б.
7. Д.А.Мирахмедов. Автоматик бошқариш назарияси. Олий техника ўқув юрти талабалари учун дарслик. - Тошкент, " Ўқитувчи", 1993. - 285 б.
8. A.X.Vaxidov, D.A.Abdullaeva. Avtomatikaning texnik vositalari. – Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 192 bet.
9. D.Yormatova. Sanoat ekologiyasi. – Т.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati". 2007. -256 b.
10. М.И.Махмудов. Ишлаб чиқаришдаги оқава сувларни тозалаш ва улардан фойдаланиш системаларида технологик мұхит

параметрларини назорат қилувчи асбоблар ва усуллар. Диссертацияси автореферати. Тошкент. 2018 й.

11. Мусаев М.Н. “Саноат чиқиндиларини тозалаш технологияси” дарслик. Тошкент 2011 й.
12. Газиева Р.Т. Сув хўжалигидаги технологик жараёнларни автоматлаштириш. Т., Талқин, 2007, 176 б.
13. Ганкин М.З. Комплексная автоматизация и АСУТП водохозяйственных систем. - М.; Колос, 1995, 420 с
14. G.Y.Hoffman, T.A.Howell, K.H.Solomon «Management of Farm Irrigation Systems. American Society of Agricultural Engineers», USA, - 1992, - pp 1040.
15. Ernest O.Dobelin. Measurement Systems: Application and design. McGraw - Hill. Higher Education.- New York, 2004 – pp.1078
16. S.T.Qosimova va bosh. Atrof muhitini muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi. Toshkent, Istiqlol, 2005.
17. Ф.Ёрматов, Ё. Исамуҳамедов, Мехнатни муҳофаза қилиш. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 2002. -384 б.
18. Н.Х.Фуломова, З.Т.Мирахмедова, Г.Ю.Бекбаева. Корхонанинг айланма маблағлари. – Т.: ТошДТУ, 2009.
19. Э.Х.Махмудов. Корхона иқтисодиёти. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси -Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004

#### **Internet manbalari:**

20. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
21. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
22. [www.texhologiy.ru](http://www.texhologiy.ru)
23. [www.allbest.ru](http://www.allbest.ru)

**Illova**